2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 208 (1269), 2024-yil 15-oktabr, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

VILOYAT IQTISODIYOTI VA SANOATINI RIVOJLANTIRISH UCHUN IMKONIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANIB, KAMBAG‘ALLIKDAN FAROVONLIK SARI YURISH VAQTI KELDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-oktabr kuni bunyodkorlik ishlari, aholi hayoti va yangi loyihalar bilan tanishish maqsadida Toshkent viloyatining qator tumanlarida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent tumaniga tashrif buyurdi.

Ilgari bu yerning markazi yo‘q edi. Keles yo‘li ko‘chasi bo‘ylab yangi bino va majmualar qad ko‘targach, hududning qiyofasi tamoman o‘zgardi. Xususan, ushbu bosh ko‘cha kengaytirilgan holda qayta qurildi. Uning ikki tarafida Davlat xizmatlari markazi, Yoshlar markazi, madaniyat saroyi, amfiteatr, universal sport majmuasi, xotira maydoni va sayilgoh kabi ko‘rkam inshootlar barpo etildi.

Eski, pastqam uylar o‘rnida 41 ta ko‘p qavatli turar joy qurildi. Endi ulardagi 2 ming 536 ta xonadonda 11 mingdan ziyod aholi yashaydi. Bu uylarning yerto‘la va birinchi qavatida savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy va moliyaviy xizmatlar bo‘yicha 270 ta shoxobcha tashkil qilinmoqda. Ularda 1 ming 350 kishi, jumladan, shu yerlik yoshlar va ayollar ishli bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari ushbu bunyodkorlik ishlarini ko‘zdan kechirdi.

Renovatsiya loyihasida ijtimoiy infratuzilmaga katta e’tibor qaratildi. Markaziy shifoxona, tumanlararo perinatal markaz, bolalar bog‘chasi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi, tuman tarixi muzeyi ishga tushirildi. O‘zgarishlar faqatgina tuman markazida emas. Hududda yaqin-yaqingacha ichimlik suv muammo edi. Osiyo taraqqiyoti banki mablag‘lari hisobidan 4 ta havza qurilib, 365 kilometr quvur tortildi. Natijada 36 ta mahalla aholisi toza ichimlik suv bilan ta’minlandi. Oxirgi uch yilda tumanda 218 kilometr ichki yo‘llar ta’mirlanib, asfalt yotqizildi. Bunday ishlar yana davom etmoqda.

Shu yerda Toshkent tumanida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash va kambag‘allikdan chiqarish masalalari yuzasidan mutaxassislarning hisoboti eshitildi. Joriy yilning 6 oyida tuman iqtisodiyoti 23 foiz o‘sgan. Yangi qurilishlar va ulardagi korxonalar negizida soliq manbasi ko‘paygan. Toshkent tumanida 70 ta mahalla, 62 mingta oila bor. Ahvoli og‘ir bo‘lgan 372 ta oilaga ko‘maklashish uchun mas’ullar biriktirilib choralar belgilangan.

Rejadagi loyihalar, bandlik hamda tadbirkorlik dasturlari doirasida yil yakuniga qadar 34 ming 443 ta ish o‘rni yaratilishi mo‘ljallangan.

Prezident xonadonlardagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, tadbirkorlarning kambag‘al oila vakillarini ishga olishini rag‘batlantirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

— Toshkent tumani poytaxtimizning yonginasida. Bu yerda uy-joy, ishlab chiqarish, tijorat, xizmat bo‘yicha juda katta imkoniyatlar bor. Ish to‘g‘ri tashkil qilinsa, o‘zi bu tumanda kambag‘alchilik bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun iqtisodiy kompleksga, mahallalarga berayotgan imkoniyatlardan foydalanib, kambag‘allikdan farovonlik sari yurish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Toshkent tumanida yil yakuni bilan qariyb 53 million dollar investitsiya o‘zlashtirilishi hisobiga sanoatda o‘sish sur’ati 9 foiz, xizmat ko‘rsatishda 13 foiz bo‘lishi kutilmoqda. Eksport hajmini 100 million dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari Zangiota tumanidagi “Technologies of real time” O‘zbekiston — Singapur qo‘shma korxonasiga bordi.

Avtomobilsozlik mamlakatimiz sanoatida yirik tarmoq. So‘nggi yillarda avtomobil ishlab chiqarish qariyb 3 barobar ko‘payib, joriy yil yakunida 460 ming donaga yetishi kutilmoqda. 2030-yilgacha bu ko‘rsatkichni 1 milliontaga yetkazish rejalashtirilgan.

Sohada monopoliyani yo‘q qilish va raqobatni rivojlantirish maqsadida 2 ta yangi xususiy korxona va nufuzli xorijiy brendlar jalb etildi. Umuman, bugun 20 dan ziyod zavodda o‘nlab turdagi avtomobillar, yuk va yo‘lovchi tashish transportlari ishlab chiqarilmoqda.

Shu bois, tarmoqda ehtiyot qismlarga ham talab ko‘p. Bu borada 300 dan ziyod korxona yaxlit kooperatsiyaga bog‘langan. Zangiotadagi “Technologies of real time” shulardan biri.

Prezident 2019-yilda “O‘zekspomarkaz”da bo‘lib o‘tgan xalqaro sanoat yarmarkasida mazkur korxona mahsulotlari bilan tanishib, zarur ko‘rsatmalar bergan edi. Shu asosida modernizatsiya ishlari amalga oshirildi. Korxonadagi 12 ta sexga Xitoy, Rossiya, Koreya Respublikasi, Yaponiya va AQSHdan keltirilgan uskunalar o‘rnatildi. Bugungi kunda 118 xil rusumdagi avtomobillarning yurish, transmissiya va boshqaruv tizimlari uchun 750 dan ortiq turdagi ehtiyot qismlar ishlab chiqarilmoqda.

— Ko‘p detallar mahalliylashtirilgani hozircha ma’qul. Mutaxassislar zo‘r bo‘lsa, sifat ham, eksport ham oshadi, — dedi Prezident.

Shundan kelib chiqib, mutasaddilarga korxonada ehtiyot qismlar qatorini kengaytirish bo‘yicha topshiriq berildi.

Bu yerda 220 ta ish o‘rni yaratilgan. Xodimlar korxonada yo‘lga qo‘yilgan monomarkazda o‘qitilib, ishga qabul qilinadi. Mahsulotlar buyurtma asosida O‘zbekiston bo‘ylab yetkazib beriladi. Xususan, “Uzauto Motors”ning Xorazm viloyatidagi zavodiga “Damas” va “Labo” avtomobillari uchun 773 ming dona ehtiyot qismlar yetkazib berilgan.

Tovarlarni texnik tekshiruv va sinovlardan o‘tkazish uchun zamonaviy laboratoriya tashkil etilgan. Korxona mahsulotlari IATF 16949:2016, ISO 9001:2015, ISO 45001:2020 hamda “General Motors”ning BIQ xalqaro sifat sertifikatlariga ega.

Shu bois, ularga xorijda ham talab bor. Xususan, o‘tgan yili Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Rossiya, Ukraina, Birlashgan Arab Amirliklariga 3 million dollarlik ehtiyot qismlar yetkazib berilgan. Joriy yilning to‘qqiz oyida 2 million dollardan ziyod mahsulot eksport qilingan.

Shuningdek, korxona Germaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy va Rossiyada bo‘lib o‘tadigan xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari zavoddagi ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi, mutaxassislar bilan muloqot qildi. Korxona shourumida tayyor mahsulotlar namunalarini ko‘zdan kechirdi.

Shu yerda kelgusi rejalar haqida ma’lumot berildi.

Xususan, 2025-yilda 1,15 million dollarlik investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Natijada BYD, Chery, Changan, Geely, Dongfeng kabi yangi avtomobil brendlari uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarish o‘zlashtiriladi.

Loyiha samarasida 43 ta yangi ish o‘rni yaratiladi, ishlab chiqarish quvvatlari 180 mingdan, 280 ming donaga yetkaziladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatiga tashrifi chog‘ida Yangiyo‘l tumanidagi “Tinchlik” kichik sanoat zonasida bo‘lib, qator korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va aholi bandligini ta’minlashda bu kabi majmualarning ahamiyati katta. Mazkur sanoat zonasi to‘rt yil oldin o‘ttiz olti gektar maydonda tashkil etilgan edi. Muhandislik infratuzilmasi, ichki yo‘llar va binolar qurilib, ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratildi.

Bu yerga qurilish materiallari, yengil sanoat, oziq-ovqat tarmoqlarida o‘n beshta loyiha joylashtirilgan. Shundan o‘ntasi ishga tushirilgan. Ularda o‘tgan yili 295 milliard so‘mlik import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Joriy yil yakunlari bo‘yicha bu raqamni qariyb ikki baravarga ko‘paytirish maqsad qilingan. Hozircha bu korxonalarda 1 ming 500 dan ortiq kishi mehnat qilmoqda. Barcha loyihalar ishga tushsa, bandlik yana ortadi.

“Enter Steel” korxonasida metall konstruksiyalar, yuqori bosimga chidamli rezervuarlar, yuk ko‘taruvchi kranlar, burg‘ulash uskunalari, payvandlash elektrodlari, metall eshik, elektr qutilar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Ushbu loyihaning qiymati 40 million dollar bo‘lib, unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar yo‘naltirilgan. Bu yerga Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Turkiya, Italiya, Ispaniya, Germaniya va Niderlandiya kabi davlatlardan uskunalar keltirilgan. Bu esa mahsulotlar sifati va ish unumdorligi yuqori bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Korxonada jami 1 ming 500 kishini ish bilan ta’minlash imkoni bor. Zarur mutaxassislarni tayyorlash uchun “Amaliy monomarkaz” tashkil etilgan. O‘quv xonalari va laboratoriyalar zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. Ta’lim dasturi esa Toshkent davlat texnika universiteti bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Davlatimiz rahbari korxonaning ish jarayonini ko‘zdan kechirdi, bu yerda tayyorlanayotgan mahsulotlar ko‘rgazmasi bilan tanishdi.

Mutasaddilarga korxona mahsulotlari zarur bo‘lgan tarmoqlar bilan kooperasiyani rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

“Tinchlik” kichik sanoat zonasi Toshkent viloyati iqtisodiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu yerdagi korxonalarda mahalliylashtirilgan, bozorbop mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Davomi 2-betda

STRATEGIK SHERIKLIK VA KO‘P QIRRALI HAMKORLIK MUNOSABATLARI YANADA RIVOJLANADI

14-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Prezidentimiz Turkmaniston yetakchisini shoir va mutafakkir Maxtumquli Firog‘iyning 300 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro forum muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan yana bir bor tabrikladi hamda Ashxobod shahrida ko‘rsatilgan samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi.

Yaqindagi uchrashuvda erishilgan kelishuvlardan kelib chiqib O‘zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Prezidenti va Turkman xalqining milliy yetakchisi bo‘lajak tadbirlar rejasini ham muhokama qildilar.

O‘zA

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI

SAYLOV 2024 27-OKTABR MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mazkur maqola Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e’lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

AXLOQSIZLIK “YANGI AXLOQ”MI?

Tahlil va taqqos

Ming yillar davomida har bir millat va elatning mutafakkir-olimlari, allomalari-yu donishmandlari shaxsning asl mazmun-ma’nosini anglashga, “U aslida kim?” degan savolga javob qidirgan. Insonning asl mohiyati nimadan iborat, degan savolga hali ham hech kim mufassal javob bera olmadi. Yaratilgan minglab nazariyalar, kashf etilgan kashfiyotlar, turli ilm maskanlarida o‘tkazilgan tajribalar, yoqlangan dissertatsiyalar, ularda bildirilgan fikrlar, taqdim etilgan xulosalar natija berganda va insonlar ularga amal qilganda hozir shaxs tarbiyasi, ma’naviyat, madaniyat to‘g‘risida bong urib o‘tirmas edik.



Afsuski, bu borada insoniyat tomonidan yaratilgan katta ilmiy-ma’rifiy boyliklarimiz ham bashariyat kutgan natijalarni bermayapti. Aks holda bugungi dunyoning shiddat bilan rivojlanib borishi tufayli paydo bo‘layotgan ichki va tashqi mafkuraviy, g‘oyaviy tahdidlar odamlarni ayovsiz ravishda, vahshiyona tarzda o‘z domiga tortmagan, adolatsizliklar, yovuzliklar, ma’naviy-mafkuraviy buhronlar shu darajada urchimagan bo‘lar edi.

Shu ma’noda, inson tarbiyasi, kamoloti masalasi besh ming yil avval qanday bo‘lsa, bugun ham ahamiyati mutlaqo o‘zgarmagan. Taassufki, bu muammolar kamaymagani yetmagandek yangi mazmun va shakllarda “takomillashib” bormoqda.

Davomi 5-betda

SAYLASH VA SAYLANISH

Bu yoshlarning nafaqat konstitutsiyaviy huquqi, balki fuqarolik burchi ham

Saylov — mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotidagi o‘ta muhim jarayon. Unda aholi, ayniqsa, yoshlarning faol ishtiroki kelajak taraqqiyotni belgilab beruvchi asosiy omil.

Keyingi yillarda yurtimizda demokratik talablar va xalqaro standartlarga mos saylov tizimi shakllantirildi. Saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish, fuqarolar, jumladan, yoshlarning saylov huquqlarini to‘la amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratish borasidagi qonunchilik izchil takomillashtirib borilmoqda.

Davomi 2-betda

Bugungi kunda qiymati 880 million dollar va quvvati 340 megavatt bo‘lgan yana 4 ta GES qurilmoqda. Shuningdek, 2028-yilgacha viloyatda umumiy quvvati qariyb 2 ming 400 megavatt bo‘lgan, 4 milliard 800 million dollarlik 23 ta loyiha amalga oshiriladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 15-oktabr, 208-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

VILOYAT IQTISODIYOTI VA SANOATINI RIVOJLANTIRISH UCHUN IMKONIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANIB, KAMBAG‘ALLIKDAN FAROVONLIK SARI YURISH VAQTI KELDI

Boshlanishi 1-betda

Aholi va iqtisodiyot o‘sishi bilan energiya manbalariga talab ko‘paymoqda. Masalan, so‘nggi to‘rt yilda Toshkent viloyatida elektr iste’moli 20 foiz oshgan. Bu boradagi tanqislikni qoplash maqsadida umumiy qiymati 1,5 milliard dollar, quvvati 805 megavattdan ortiq bo‘lgan 5 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Bunda “yashil” energetika manbalariga keng o‘rin berilgan. “Tinchlik” kichik sanoat zonasidagi “Enter Green Solar” korxonasida buning uchun zarur quyosh panellari hamda turli xil kabellar ishlab chiqariladi.

Davlatimiz rahbari sanoat zonasiga tashrifi chog‘ida mazkur loyiha bilan ham tanishdi.

— Bunday yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarayotgan mahalliy korxonalarimizni qo‘llab-quvvatlab, faoliyatini kengaytirishiga yanada ko‘proq sharoit yaratishimiz kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Umumiy qiymati 7 million dollar bo‘lgan mazkur korxonaga Italiyaning “Ecoprogetti” kompaniyasi uskunalari o‘rnatilgan. Ular asosida yiliga 377 ming dona yuqori sifatli quyosh paneli ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Korxonaning o‘zida ham quvvati 125 kilovatt bo‘lgan panellar o‘rnatilgan. Bu yerda 100 kishi mehnat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari Yangiyo‘l tumanidagi “Mesal Water Technologies” korxonasini ko‘zdan kechirdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlarda ichimlik suv va oqova tarmoqlari ta’minotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu masala tez rivojlanayotgan Toshkent viloyati shaharlari uchun ham dolzarb.

Xususan, “Toshkent viloyati ichimlik suv va oqova suv tizimlarini rekonstruksiya qilish va qurish” loyihasining 3-bosqichi doirasida Chirchiq, Olmaliq, Angren va Bekoboddagi inshootlar rekonstruksiya qilinmoqda.

“Mesal Water Technologies” korxonasida shu kabi suv tozalash inshootlari uchun o‘ttizdan ortiq maxsus qurilma va uskunalar ishlab chiqarilmoqda.

Loyihaga 1,7 million dollar mablag‘ yo‘naltirilib, Xitoy, Germaniya va Turkiyadan keltirilgan energiyatejamkor texnologiyalar o‘rnatilgan. Korxona xalqaro sertifikatlarga ega. 50 kishi ish bilan ta’minlangan.

Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va eksport qilish izchil ko‘payib bormoqda. 2030-yilgacha oziq-ovqat ishlab chiqarishni 2 barobar, eksportini 5 barobar va qo‘shilgan qiymat darajasini 3 marta oshirish maqsad qilingan. Bunga erishishda, hech shubhasiz, Toshkent viloyatining hissasi katta.

Bunday korxonalar faoliyatining kengayishi aholi farovonligi va salomatligiga hissa qo‘shishi ta’kidlandi.

Toshkent viloyati poytaxtga yaqinligi, yurtimiz vohalari va xalqaro yo‘llarni bir-biriga bog‘lashi bilan ulkan iqtisodiy salohiyatga ega. Keyingi yetti yilda hududda qariyb 9,4 milliard dollarlik investitsiyalar o‘zlashtirilib, 143 mingdan ortiq ish o‘rni va 5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratilgan.

Bu sur’atni davom ettirib, 2024-2026-yillar uchun jami 26 milliard dollarlik 125 ta loyiha rejalashtirilgan. Ularning 21 tasi strategik, 52 tasi tarmoq, 52 tasi hudud loyihalaridir. Bu tashabbuslar natijasida 42 mingta ish o‘rni yaratilishi mo‘ljallangan.

Davlatimiz rahbariga umumiy qiymati 3,4 milliard dollar bo‘lgan 11 loyiha taqdimot qilindi.

Ularga Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Rossiya, Ozarbayjon kabi mamlakatlar kompaniyalari va mahalliy tadbirkorlar investitsiya kiritmoqda. To‘qimachilik, oziq-ovqat, tibbiyot, elektrotexnika, energetika, qurilish materiallari, geologiya, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlardagi bu loyihalarda 23 mingta ish o‘rni yaratiladi.

Masalan, Zangiota tumanida Janubiy Koreya investorlari bilan birgalikda jigar, bo‘g‘im, ko‘z va miya faoliyatini davolashda qo‘llaniladigan dori vositalari ishlab chiqarish tashkil etiladi. U yerda 200 kishining bandligi ta’minlanadi.

Prezidentimiz investorlar uchun barcha sharoitlarni yaratish, loyihalarning har bir bosqichini nazorat qilib, masalalarini hal etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

So‘ng Yangiyo‘l tumanida Toshkent viloyatidagi muhim loyihalarni ishga tushirish va qurilishini boshlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Toshkent viloyati mamlakatimiz iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega. Bu hudud va azim poytaxtimiz salohiyati o‘zaro bog‘liq hamda bir-birini to‘ldirib keladi.

Keyingi besh yilda Toshkent viloyatida sanoat hajmi 1,5 barobarga ko‘payib, 107 trillion so‘mni tashkil etgan, mahalliy eksport hajmi 3,5 karra oshib, qariyb 1 milliard dollarga yetgan.

Qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhiti sarmoyalar hajmini oshirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda. 2018-yilda viloyatda jami bo‘lib 20 million dollar investitsiya o‘zlashtirilgan bo‘lsa, o‘tgan yili bu raqam 1 milliard dollarga yetgan. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar soni ham yil sayin ortib, hozirda 1 ming 700 tani tashkil etmoqda.

Bugungi kunda 20 milliard 360 million dollarlik 91 ta xorijiy, 4 yarim milliard dollarlik 28 ta mahalliy investitsiya loyihalari bo‘yicha ish olib borilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev marosim doirasidagi loyihalarning ahamiyatiga to‘xtalib o‘tdi.

Xususan, Olmaliq shahrida 1 milliard dollar investitsiya hisobidan 227 gektar maydonda “Buyuk ipak yo‘li” maxsus sanoat texnoparki quriladi. U yerda elektrotexnika, to‘qimachilik, qurilish materiallari, farmatsevtika kabi yo‘nalishlarda 100 ga yaqin korxona joylashtiriladi. 3 mingta yangi ish o‘rni yaratilib, yiliga 5 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqariladi va 300 million dollarlik eksport imkoniyati paydo bo‘ladi.

Yuqori Chirchiq tumanida 350 million dollar evaziga 69 gektar maydonda to‘qimachilik sanoat parki tashkil etiladi. Bu majmuada 20 dan ortiq ip-kalava, mato to‘qish va bo‘yash, tayyor tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari joylashtiriladi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va eksport qilish izchil ko‘payib bormoqda. 2030-yilgacha oziq-ovqat ishlab chiqarishni 2 barobar, eksportini 5 barobar va qo‘shilgan qiymat darajasini 3 marta oshirish maqsad qilingan. Bunga erishishda, hech shubhasiz, Toshkent viloyatining hissasi katta.

Jumladan, Yangiyo‘l tumanida yiliga 50 ming tonna mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalar, Qibrayda yuqori sifatli eksportbop oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash korxonalari ishga tushirilmoqda.

Toshkent viloyati energetika sohasi ham katta salohiyatga ega bo‘lib, bu yerda 5,7 gigavattli quvvatlar mavjud. Bu miqdorni oshirish maqsadida 1,5 milliard dollarlik 800 megavattdan ortiq 6 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Yashil energetikani rivojlantirish bilan birga, yurtimizda energetika tizimi barqarorligini saqlash bo‘yicha ham ko‘p ishlar qilinmoqda. Shuning uchun 2030-yilgacha umumiy quvvati 4 ming 100 megavattli elektr energiyasini saqlash tizimlarini barpo etish rejalashtirilgan.

Xitoyning yetakchi kompaniyalari ishtirokida barpo etiladigan 3 ta loyiha bunda muhim o‘rin tutadi. Avvalo, “China Datang” kompaniyasi bilan Bo‘ka tumanida qiymati 240 million dollarlik quyosh elektr stansiyasi barpo etiladi. Bu stansiyada yiliga 576 million kilovatt-soat yoki 240 ming xonadon uchun yetarli elektr energiyasi olinadi. Natijada viloyatda generatsiya quvvatlari 6,5 gigavattga, elektr energiyasi ishlab chiqarish yiliga 24 milliard kilovatt-soatga yetkaziladi.

Yana ikkita loyiha — “China Energy Overseas Investment” kompaniyasi bilan hamkorlikda Parkent va Piskent tumanlarida quriladigan 220 million dollarlik, 200 megavattli energiya saqlash tizimlaridir. Ular kunning tig‘iz paytlarida uzilishga yo‘l qo‘ymaslik va iste’molchilarni elektr bilan ishonchli ta’minlash imkonini beradi.

So‘nggi yillarda yurtimizda 630 million dollar investitsiya hisobidan 400 megavattdan ortiq yangi gidroelektr stansiyalari barpo etilib, ularning quvvati 2,2 gigavattga yetkazildi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki yurtimizda 3 ming 280 megavatt quvvatga ega bo‘lgan 44 ta GES qurish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, Toshkent viloyatida gidroenergetika bo‘yicha juda katta salohiyat bor.

Hozirda viloyatda umumiy quvvati 1 ming 330 megavatt bo‘lgan 25 ta gidroelektr stansiyasi mavjud. Bu respublikamizdagi jami gidroenergetika quvvatining 60 foiziga tengdir.

Bugungi kunda qiymati 880 million dollar va quvvati 340 megavatt bo‘lgan yana 4 ta GES qurilmoqda. Shuningdek, 2028-yilgacha viloyatda umumiy quvvati qariyb 2 ming 400 megavatt bo‘lgan, 4 milliard 800 million dollarlik 23 ta loyiha amalga oshiriladi.

Marosimda shundan ikkitasi — Ohangaron tumanida barpo etilgan 2,5 megavattli kichik GES hamda Bo‘stonliq tumanida qurilgan 1,5 megavattli Ugam kichik GESi ishga tushirilmoqda. Mazkur quvvatlar yiliga 18 million 400 ming kilovatt-soat “yashil” energiya ishlab chiqaradi va 7 ming 600 ta xonadonni elektr energiyasi bilan ta’minlaydi.

Shavkat Mirziyoyev yurtimizga investitsiya kiritayotgan xorijiy kompaniyalarga minnatdorlik bildirib, ishlariga muvaffaqiyat tiladi.

Ramziy tugma bosilib, mazkur 9 ta loyihaning qurilishi va faoliyatiga start berildi. Ularning umumiy qiymati 2 milliard dollardir.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbirlari



VENGRIYADA BUYUK SHOIR VA MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIY DAHOSIGA EHTIROM KO‘RSATILDI

O‘zbekiston elchixonasi tashabbusi bilan Vengriyaning Lakitelek shahrida buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy byustining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu byust Vengriya — O‘zbekiston diplomatik aloqalari tarixida Vengriyada ochilgan birinchi madaniy yodgorlikdir. Loyiha vengriyalik haykaltarosh Dyorji Lantos tomonidan amalga oshirildi.

Ochilish marosimida O‘zbekiston madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari Avazxon Tojixonov, mamlakatimiz elchisi Oybek Shaxavdinov, O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Shuhrat Sirojiddinov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ilyos Arabov va boshqalar ishtirok etdi.

Tadbirda Vengriya tomonidan 100 dan ortiq mehmon, jumladan, ushbu davlat parlamenti spikeri o‘rinbosari Shandor Lejak, Tashqi ishlar va savdo vazirligining xavfsizlik siyosati bo‘yicha davlat kotibi Piter Staray, Madaniyat va innovatsiyalar vazirligining madaniyat masalalari bo‘yicha davlat kotibi Magdolna Zavogya hamda siyosiy, madaniy doira namoyandalari, olimlar, jurnalistlar, diplomatik korpus vakillari qatnashdi.

Dastlab yig‘ilganlar Navoiy byusti poyiga gul qo‘ydilar.

Madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari Avazxon Tojixonov o‘z nutqida so‘nggi yillarda Alisher Navoiyning boy ijodiy merosini chuqur o‘rganish, uning o‘lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy davlatlarda keng targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayotganini ta’kidladi.

U, shuningdek, turkiy dunyoning ilm-fan, madaniyat va san’at sohalaridagi taraqqiyotiga hissa qo‘shgan atoqli shaxslarni taqdirlash maqsadida O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Alisher Navoiy nomidagi mukofot ta’sis etilganini tilga oldi.

Rektor Shuhrat Sirojiddinov hozirgi kunda Tokio, Seul, Shanxay, Vashington, Moskva, Minsk, Ostona, Boku, Ashxobod, Dushanbe, O‘sh kabi shaharlarda Navoiy haykallari o‘rnatilganini hamda endi ular qatoriga Lakitelek shahri ham qo‘shilgani katta g‘urur va iftixor bag‘ishlayotganini bildirdi.

Elchi Oybek Shaxavdinov Alisher Navoiyning do‘stlik, inson ruhi kabi mavzularni tadqiq etishi zamon va chegaralardan oshib, uni jahon adabiyotida umuminsoniy shaxs sifatida mavqega ko‘targanini qayd etdi. Uning o‘zbek tili rivojiga qo‘shgan hissasi, san’at va ilm-fanga homiyligi Markaziy Osiyoning madaniy manzarasini sezilarli darajada boyitganiga e’tibor qaratdi.

“Oldimizda qad ko‘tarib turgan yodgorlik haykaltarosh Dyorji Lantosning ajoyib ijodi bo‘lib, uning badiiy yondashuvlari Navoiy ruhining mazmun-mohiyatini qamrab oladi. Lantosning ishi an’anaviy va zamonaviy uslublarni mohirlik bilan uyg‘unlashtirib, madaniy qadriyatlarni chuqur tushunishini aks ettiradi”, dedi O‘zbekiston elchisi.

Vengriya parlamenti spikeri o‘rinbosari Shandor Lejak ikki davlat rahbarlari siyosiy irodasi bilan hozirgi vaqtda Vengriyaning turkiy dunyo mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston bilan asriy rishtalari qayta tiklanayotganini yuqori baholadi.

“Biz ota-bobolarimiz kindik qoni to‘kilgan yurtga hurmatimiz belgisi sifatida qardosh o‘zbek xalqining buyuk farzandi Alisher Navoiyga bag‘ishlangan haykalni yurtimizda o‘rnatishdan bag‘oyatda mamnunmiz. Ushbu yodgorlik bugun vengr va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi o‘chmas do‘stlikka asos soldi. Madaniy aloqalarimizdagi bugungi tarixiy voqea munosabati bilan ikki mamlakat xalqlarini samimiy qutlayman”, dedi u.

Vengriya Tashqi ishlar va savdo vazirligi davlat kotibi Piter Staray esa Navoiy haykalining Vengriyada qad ko‘tarishi Bosh vazir Viktor Orban va O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘rtasidagi yaqin do‘stlik va birodarlik aloqalari natijasi ekanini ta’kidladi.

Alisher Navoiyning O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ilyos Arabov boshchiligidagi san’atkorlar jamoasi tomonidan ijro etilgan g‘azallari asosida bastalangan milliy maqom ashulalari barchaga xush kayfiyat bag‘ishladi.

“Dunyo” AA
Lakitelek shahri

SAYLASH VA SAYLANISH

Bu yoshlarning nafaqat konstitutsiyaviy huquqi, balki fuqarolik burchi ham

Boshlanishi 1-betda

Eng muhimi, yoshlar demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirok etayotir.

Ayni paytda ertamiz egalarining siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekiston yoshlarining siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatini shakllantirish, Konstitutsiya va boshqa qonunlarga hurmat hissini kuchaytirish, saylovga munosib tayyorgarlik ko‘rish va ilk bor ishtirok etuvchi yosh saylovchilarning ushbu siyosiy jarayondan xabardorligini oshirish bugunning dolzarb vazifalari sirasidandir.

Joriy yil 27-oktabrda o‘tkaziladigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan kuchli parlamentarizm va joylarda vakillik organlarining vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda bo‘lib o‘tmoqda. Ilk bor Qonunchilik palatasiga aralash tizim asosida bo‘lib o‘tadigan saylovning mohiyati va ahamiyati yuzasidan joylarda yoshlarning mazkur jarayonda faol ishtirok etishi, o‘z kelajagi uchun ovoz berishi borasida tadbirlar, tanlovlar o‘tkazilmoqda.

Yoshlarga saylov tizimi, ushbu jarayonda ochiqlik va oshkoralik prinsiplarini mustahkamlash maqsadida saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartishlarning ma’no-mazmuni atroflicha tushuntirilayotir.

Jamiyatni yanada yangilash va demokratlashtirish fuqarolarning saylov huquqi amalga oshirilishi bilan uzviy bog‘liq. Har bir yosh o‘z taqdirini yurt taqdiri bilan bog‘lar ekan, undagi siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etishi, davlat boshqaruvida munosib nomzodni saylash orqali qatnashishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun yoshlarning siyosiy-huquqiy bilimini yuksaltirish, saylov kampaniyasidagi faol ishtirokini ta’minlash zarur.

Bu galgi saylovning o‘ziga xosligi shundaki, birinchidan, O‘zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylov aralash saylov, ya’ni majoritar-proporsional tizim asosida o‘tkaziladi.

Jumladan, deputatlarning 75 nafari bevosita majoritar tizim asosida, ya’ni saylovchilar aniq shaxslarga ovoz berishi yo‘li bilan, qolgan 75 nafari esa proporsional tizim bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylanadi.

Konstitutsiya va Saylov kodeksiga muvofiq, fuqarolar 18 yoshdan saylash huquqiga ega. Joriy yilgi saylovda 700 mingga yaqin yosh birinchi marta ovoz berish huquqidan foydalanadi. Bu esa saylov qonunchiligining mazmun-mohiyati bo‘yicha yoshlar orasida targ‘ibotni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Qolaversa, barcha darajadagi saylov komissiyalari faoliyati, ularning saylov jarayonlari ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlari to‘liq raqamlashtirildi. Saylov tartibotlaridagi byurokratiya, ortiqcha vaqt sarfi va hujjatlar harakati qisqartirildi.

Saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy etildi. Xususan, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlarni ko‘rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo‘lishi belgilandi.

Bundan tashqari, deputatlikka nomzod saylanish uchun saylovchilarning nisbiy ko‘pchiligi ovozini olish lozimligi belgilandi. Unga ko‘ra, nomzod tegishli saylov okrugida boshqa nomzodlarga nisbatan ko‘proq ovoz to‘plagan taqdirda deputat bo‘lib saylanishi mumkin bo‘ladi va shu orqali takroriy ovoz berishni tashkil etish talab etilmaydi.

Konstitutsiya va Saylov kodeksiga muvofiq, fuqarolar 18 yoshdan saylash huquqiga ega. Joriy yilgi saylovda 700 mingga yaqin yosh birinchi marta ovoz berish huquqidan foydalanadi. Bu esa saylov qonunchiligining mazmun-mohiyati bo‘yicha yoshlar orasida targ‘ibotni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Eng muhimi, 20 mingga yaqin yosh saylov komissiyalari faoliyatida bevosita ishtirok etish orqali ham o‘z siyosiy faolligini ifoda etib kelyapti.

Milliy saylov qonunchiligiga ko‘ra, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar 25 yoshga, mahalliy kengashlar deputatligiga nomzodlar esa 21 yoshga to‘lgan bo‘lishi kerak.

Avvalgi saylovlarga qaraganda, nomzodlar ham ancha yoshargan. Bu yilgi davlat hokimiyati vakillik organlari saylovida deputatlikka nomzodlarning 3 mingdan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi.

Kimyoxon KAMOLOVA,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Gulchehraxon ESHONOVA,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

YANGILIKKA ASOSLANGAN LIBERAL G‘OYALAR – TARAQQIYOT TAYANCHI

Mamlakatimizda keyingi sakkiz yilda yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash yo‘lida ulkan ishlar amalga oshirildi. Eng muhimi, Inson va uning qadri yuksaldi. Bugungi kunda millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir fuqaro o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim va ajralmas bo‘g‘iniga aylangan, kuchli iqtisodiyotga ega bo‘lgan davlatni barpo etish bo‘yicha ko‘lami keng islohotlar izchil davom etmoqda.

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida mamlakatning barqaror taraqqiyoti va xalq farovonligini ta’minlash uchun adolatli va zamonaviy davlat barpo etish, aholi uchun qulay atrof-muhit yaratish, shuningdek, tashqi siyosatda iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish muhim yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Adolatli boshqaruv tizimi fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilsa, qulay atrof-muhit ularning hayot sifatini oshiradi.

Bundan tashqari, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish orqali O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi mustahkamlanadi va davlatning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Partiya bu yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligini e’tirof etgan holda, xalqqa xizmat qilishni ustuvor vazifa sifatida ko‘rib, mamlakatning barqarorligi va xalqaro maydondagi muvaffaqiyatiga katta ahamiyat qaratmoqda.

Xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etamiz

Bugungi kunga kelib, respublikamizda xalq bilan muloqot qilishning mutlaqo yangi tizimi qaror topgan. Davlat apparatining institutsional tizimi qayta ko‘rib chiqilib, uni optimallashtirish, samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimiga innovatsion yondashuvlar joriy etildi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ochiq fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi va odil sudlovni ta’minlash, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan mazkur islohotlarni qat’iy davom ettirish bugungi kun talabidir.

Avvalambor, insonning haq-huquqlari va erkinliklarini ta’minlash barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi kerak, degan qat’iy tamoyilga tayanish — **asosiy vazifa**miz bo‘ladi.

Biz budjet tashkilotlari xarajatlarining shaffofligini ta’minlashda parlament va mahalliy Kengashlar oldidagi ijroiya organlari hisobdorligini kuchaytirish tarafdorimiz. Mahalliy Kengashni **xalqning chinakam ovoziga aylantirish va hokimlarning Kengash oldida hisobdor** bo‘lishi, mas’uliyati va javobgarligi oshishini ta’minlaydigan tizimni mustahkamlaymiz. Shuningdek, **hokim va mahalliy Kengashning** javobgarlik doirasi va aniq vazifalari belgilanadi. Mahalliy Kengashlar faoliyatiga oid **500 dan** ortiq qonunchilik hujjatlari tizimlashtiriladi.

Partiyamiz keyingi besh yillikda qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili hamda ilg‘or xorijiy tajriba asosida **nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida qonunchilikni** takomillashtirish, aholi farovonligini ta’minlashda **mahallani** jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasidagi **“ko‘prik”**ka aylantirishga alohida e’tibor qaratadi. Mahallalarni **“bir qadam”** tamoyili asosida fuqarolarning aksariyat masalalarini hal etadigan maskanga aylantiramiz. Bundan tashqari, aholi turmushini yanada yaxshilash maqsadida **“Tashabbusli budjet”ga** beriladigan mablag‘larni **3 karra** oshirish kabi masalalarni ilgari suramiz.

Yangi O‘zbekistonda bundan 8 yil oldin boshlangan va izchil davom etayotgan qonun ustuvorligi, odil sudlov va adolat prinsiplarini hayotga yanada keng tatbiq etishni muhim deb hisoblaymiz. Biz yangi O‘zbekistonda fuqarolar va biznesning himoyachisi faqat qonun hamda sud bo‘lishini istaymiz. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatib, odil sudlovga erishish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etamiz.

O‘zLiDeP sud mustaqilligi tarafdori bo‘lgan siyosiy kuch sifatida mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan izchil islohotlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Lekin ayrim partiyalar tomonidan ayni yo‘nalishda ilgari surilayotgan takliflar maqsadga yetishni ortga surishi mumkin. Masalan, Xalq demokratik partiyasi o‘rtaga tashlayotgan viloyat, tuman (shahar) sudlari raislarini rotatsiya qilish amaliyotini joriy etish tashabbusi sudlar mustaqilligiga bevosita ta’sir qiladi. Ya’ni mamlakatimizda nafaqat sudlar, balki sudyalar ham mustaqildir. Ularning rotatsiyasini amalga oshirish yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan sudyalar mustaqilligi, faqat Konstitutsiya va qonunga bo‘ysunishlariga oid normaga mantiqan to‘g‘ri kelmaydi. Sudya mustaqil bo‘la turib, viloyat, tuman (shahar) sudlari raislarini rotatsiya qilishdan qanday ma’no bor? Ular faqat Konstitutsiya va qonunga bo‘ysunadilar.

Biz ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqib, qonunchilikni qo‘llashda muayyan sud ishi bo‘yicha chiqarilgan sud hujjatini boshqa shu turdagi ishlarga qo‘llash imkonini beruvchi **“sud pretsedenti huquqi”**ni amaliyotga joriy etish ayni muddao deb hisoblaymiz.

Sud pretsedentini qo‘llashning quyidagi afzalliklari mavjud:

Birinchidan, sud qarorlari sifatini oshirib, adolatni ta’minlashga xizmat qiladi. Sud amaliyotida bir nizo turli sud ishlarida turlicha baholanishi, hattoki bir sud ishi birinchi instansiyada boshqacha baholanib, keyingi instansiyada boshqa natija bilan yakunlanishi holatlari ham uchrab turadi. Buning sababi sud qarorini chiqarishda inson omilining ta’siri, ayrim hollarda subyektivlikka yo‘l qo‘yilishidir. Sud pretsedenti amalda bo‘lsa, o‘xshash nizolar o‘xshash yechim topadi. Bu yechim ham oqilona, ham puxta asoslangan bo‘ladi.

Ikkinchidan, nizolarni sud yo‘li bilan hal qilishda shaffoflikni ta’minlaydi. Sud pretsedenti o‘ziga xos namunaviy qaror ekan, u barcha sud jarayoni ishtirokchilariga qonunlarning bir xil qo‘llanishi uchun vosita bo‘ladi.

Biz mamlakatimizda sud-huquq tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqchi bo‘lsak, sud pretsedentini tezroq amalda qo‘llashimiz lozim. Buning vaqti keldi.

Shu bilan birga, jabrlanuvchining iltimosiga asosan **jinoyat ishini qo‘zg‘atmasdan ham yarashish imkoniyatini berish** choralarini ko‘ramiz. Bu bilan uzoq davom etishi mumkin bo‘lgan jinoyat protsessining oldini olishga erishamiz.

Jinoyat sodir qilgan shaxslar kelgusida tuzalish yo‘liga o‘tishi uchun muqobil jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari kengaytirilishi juda muhim deb hisoblaymiz.

Iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha **garov ehtiyot chorasidan keng foydalanish** imkoniyati yaratiladi. Bu masalada ayblanuvchi yoki himoyachi tomonidan sudlarga ehtiyot chorasini o‘zgartirish haqida murojaat qilish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Ichki ishlar va milliy gvardiya organlari xodimlarining fuqarolar bilan **muloqot qilish standartlarini** joriy etish orqali ularni xalq ko‘z o‘ngida tom ma’noda himoyachiga aylantiramiz.

Barcha sohalarda shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlash talablarini kuchaytiramiz. Pirovard maqsadimiz — fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash, mulki va mablag‘larini firibgarlar, ayniqsa, tobora bo‘y ko‘rsatayotgan kiberjinoyatchilardan himoya qilishdir.

Yana bir jiddiy vazifa, Advokatlar palatasining advokatlarni himoya qilish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasidagi faoliyatini takomillashtirishdan iborat. **Advokatlar reytingini joriy qilish** orqali advokatlik tizimida raqobat muhiti rivojlantiriladi, salohiyatli advokatlar ko‘payadi.

Umuman olganda, O‘zLiDeP ba’zi partiyalardan farqli ravishda advokatura tizimini takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflarni ilgari surmoqda. Misol uchun, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi “advokatura institutini yanada takomillashtirish” kabi umumiy takliflar atrofida aylanib yurgan vaqtda partiyamiz o‘z an’analariga sodiq qolgan holda barcha sohalar singari advokatura sohasida ham tizimli va aniq takliflar bilan siyosiy maydonga chiqmoqda.

Partiyamiz biznes yuritishga xalaqit berayotgan qator normalarni qayta ko‘rib chiqish taklifini ilgari suradi. Jumladan:

— tadbirkorning manzili, bank rekvizitlari o‘zgargani yoki qayta ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etmaganlik uchun belgilangan ma’muriy javobgarlikni bekor qilish;

— tadbirkorlik subyektlarining bank hisobvaraqlaridagi amaliyotlarni to‘xtatib turishga faqat sud tartibida ruxsat berishni qonun darajasida belgilash;

— nazorat qiluvchi organlar zimmasiga tekshiruv o‘tkazilishi haqida Savdo-sanoat palatasini kamida 10 ish kuni oldin xabardor qilish majburiyati yuklanishini qonunda belgilash;

— soliq intizomining buzilishi bilan bog‘liq ma’muriy jarima miqdorini huquqbuzarlik keltirib chiqargan iqtisodiy oqibatning ta’sirini inobatga olib tabaqalashtirish;

— tadbirkorlik subyektlarining o‘zlariga ko‘rsatilgan xizmatlar, shu jumladan, berilgan kreditlar yuzasidan banklar va boshqa moliya tashkilotlari oldidagi shartnoma majburiyatlarini asosli biznes tavakkalchiliklari tufayli bajarmagani ularni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lmasligini qonunchilikda belgilash.

Partiyamiz oldida turgan yana bir dolzarb vazifalardan biri, bu ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish va xalq bilan muloqotni yanada kengaytirishdan iborat. Bu borada ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo‘lgan huquqlarini qat’iy kafolatlaymiz. So‘z erkinligiga qarshi har qanday urinishlarga qarshi turib, mustaqil nodavlat matbuot tizimini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Partiya korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq muhim tashabbuslarni ham ilgari suradi. Ya’ni korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimi samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettiramiz. Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha choralar ko‘ramiz. **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan Milliy strategiyani qabul qilamiz.**

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zLiDeP Saylovoldi dasturi yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda belgilangan inson huquqlari kafolatlariga oid normalarning 3 barobarga ko‘payganini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Partiyamiz xalq xizmatidagi davlatni barpo etishni yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rayotgan siyosiy kuchdir.

Aholiga qulay atrof-muhit sharoitlarini yaratamiz

Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, bunga doir talablari belgilangan bo‘lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi. Kuchli davlat boshqaruvisiz ekologik muvozanatni barqaror saqlab turish amrimahol. Shu bois, so‘nggi yillarda mamlakatimizda bu borada kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi doirasida yurtimizda **1 milliard tup ko‘chat** ekilib, Orol dengizining qurigan tubida **2 million gektar** maydonda o‘rmonlar barpo etildi.

Mamlakatimizda keyingi olti yilda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar 700 ming gektardan oshdi. O‘zbekistonda **“yashil” iqtisodiyotga o‘tish** bo‘yicha ham muhim qadamlar tashlandi.

Ushbu boshlangan islohotlarni O‘zLiDeP to‘liq qo‘llab-quvvatlagan holda kelgusi besh yillikda O‘zbekistonda **ekologik barqarorlik va aholi salomatligini ta’minlashga** qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. Partiyamizning nuqtayi nazaricha, xalqaro tajribadan foydalanish orqali mamlakatimizda havo sifati bo‘yicha ilg‘or standartlar va texnologiyalarni joriy etish kechiktirib bo‘lmaydigan masaladir.

Aholiga qulay atrof-muhit sharoitlarini yaratish nuqtayi nazaridan O‘zLiDeP quyidagi masalalarni o‘z Saylovoldi dasturining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilagan.

Bu borada suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida **suv xo‘jaligida davlat-xususiy sheriklik va autsorsing** asoslarini joriy etish darkor. Chunki suv resurslari muammosi kelgusi o‘n yilliklarda mintaqamiz va mamlakatimiz uchun eng dolzarb masala bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda 70 foiz yerlar eski usulda sug‘orilmoqda, 60 foiz kanallar betonlanmagani oqibatida yiliga 16 milliard metr kub suv yo‘qotilmoqda. Shu sababli besh yil ichida barcha ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan fermer va dehqonlar xarajatining 50 foizini qoplab berish ayni muddaodir.

Partiya qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlash muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ya’ni fuqarolar ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhit zararlanishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida barcha qishloq va shaharlarni qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash xizmatlari bilan to‘liq qamrab olib, ularni qayta ishlashni kamida 65 foizga yetkazishni rejalashtirmoqda.

Ekologiya sohasidagi ishlarni tashkil etish borasida huquqiy va tashkiliy asoslar zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirilishi zarur deb hisoblaymiz va barcha hududlarda atmosfera havosini yaxshilash bo‘yicha **“Musaffo havo — 2030 milliy dasturi”ni** qabul qilishni ustuvor vazifa, deb bilamiz.

Atrof-muhitga zararli tashlanmalarni qisqartirish hamda inson faoliyatining tabiatga salbiy ta’sirini kamaytirish darkor. Shu bois, O‘zLiDeP ko‘mir, mazut kabi energiya manbalarining atrof-muhitga zararini kamaytirish maqsadida ularning o‘rniga bosqichma-bosqich **ekologik toza geotermal va boshqa qayta tiklanuvchi energiya** turlarini keng yo‘lga qo‘yishni rejalashtirgan.

Orolbo‘yi mintaqasiga birlamchi e’tibor qaratgan holda dengizning qurigan tubida **qo‘shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni** barpo etib, ularning umumiy hajmini **2,5 million gektarga** yoki hududning 78 foiziga yetkazamiz.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi qamrovini yanada oshirish uchun yiliga **400 milliard so‘m ajratilishi** aholi maskanlarida ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu ma’noda, davlat idoralari, korxonalar, oliy ta’lim muassasalari ham o‘z bog‘larini tashkil qilishi, yangi uy-joy qurishda pudratchilarga **“yashil hudud”** va **avtoturargoh barpo etish majburiy etib belgilanishi** zarur, deb hisoblaymiz. Mamlakatimizda yashil maydonlar, daraxtzorlar, gulzorlarni 30 foizga yetkazishga alohida e’tibor qaratamiz. Shaharlar hamda ularning atroflarida **“yashil belbog‘”lar** barpo etish choralarini ko‘ramiz.

“Yashil” iqtisodiyot ko‘lamini kengaytirish va “yashil” o‘sish orqaligina barqaror taraqqiyotni ta’minlash mumkin, deb hisoblaymiz. Respublikamizda **qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 2,5 barobarga** oshirib, ishlab chiqarilgan energiyada ularning ulushini 40 foizga yetkazamiz. “Yashil” texnologiyalarni keng qo‘llash, ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishda yopiq sikli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantiramiz.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zLiDeP Saylovoldi dasturiga kiritilgan mazkur taklif-tashabbuslar ona tabiatimizni kelajak avlodlarga bezavol yetkazishga xizmat qiladi.

Samarali iqtisodiy diplomatiya — ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat garovi

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari boshchiligida barcha sohalarda **uzoq va yaqin davlatlar bilan do‘stlik** aloqalari va o‘zaro hamkorlik yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. Buni kun sayin ko‘payib borayotgan chet el kapitali evaziga qurilayotgan qo‘shma korxonalar, ilm-fan, madaniyat, san’at, turizm sohasidagi hamkorlik aloqalaridan ham sezish qiyin emas. Boz ustiga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi belgilangan.

Partiyamiz yangi O‘zbekiston tashqi siyosati **faqat xalqimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib borilishi zarur,** degan qat’iy pozitsiyada.

Biz uzoq va yaqin davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar va hamkorlikni ana shu tamoyil asosida rivojlantirish tarafdorimiz.

Biz **ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat** davom ettirilishiga xayrixohmiz.

Partiya tashqi siyosatda **qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik** munosabatlari jadal rivojlantirilishida barcha imkoniyatlarini ishga soladi.

Partiyamiz mamlakatimizning siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi tashabbuslari xalqaro maydonda faol ilgari surilishi, **Markaziy Osiyoda** turli yo‘nalishlar, ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport yo‘laklarini rivojlantirish borasidagi amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, strategik hamkorlarimiz bilan yangi formatdagi amaliy aloqalar mustahkamlanishini faol qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish maqsadida iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichini inobatga olgan holda yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bu boradagi vazifalarni samarali amalga oshirish uchun partiya **iqtisodiy diplomatiyani faollashtirish** dolzarb ahamiyatga ega ekanini e’tirof etadi.

Partiya investitsiya va innovatsiyalarni keng jalb qilish, sayyohlar oqimini ko‘paytirish va O‘zbekiston imijini faol targ‘ib etish barcha diplomatik vakolatxonalarimizning **asosiy vazifasiga** aylanishi kerak, deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, an’anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish ham biz uchun muhim sohalardan sanaladi.

O‘zbekistonning xalqaro tashabbuslarini **keng jamoatchilikka yetkazish** borasidagi ishlarni jadallashtirish partiyaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

O‘zLiDeP Saylovoldi dasturida xorijdagi vatandoshlarimiz **bilan hamkorlikni mustahkamlash va migrantlar huquqlarini ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratilgan. Xususan,** xorijdagi **vatandoshlarimizni qo‘llab-quvvatlab, ularning** yurtimiz taraqqiyotida faol ishtirok etishlari uchun zarur sharoitlarni yaratamiz. Ular o‘rtasida **ona tili, milliy madaniyat va an’analarni targ‘ib etish** bo‘yicha tizimli choralar ko‘ramiz.

Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini isloh qilib, xorijga ishlash uchun borayotgan fuqarolarimizni **kasbga va chet tillariga o‘qitish ko‘lamini** kengaytiramiz. **Xorijda ishlab yurgan yurtdoshlarimiz** uchun, avvalo, **O‘zbekistonda ishlab**, munosib ish haqi olishlari uchun imkoniyat yaratamiz.

Murakkab vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizga **huquqiy va boshqa yordamlar ko‘rsatish tizimini** yanada takomillashtiramiz. Shuningdek, **mehnat migrantlari** va ularning **oila a’zolariga doimiy g‘amxo‘rlik** qilish va **ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish** bo‘yicha choralar ko‘ramiz.

O‘zLiDeP — Vatan ravnaqi yo‘lidan ortga qaytmaydi. Bu boradagi sinov va mashaqqatlarni elektorat manfaati uchun yengib o‘tadi hamda hamisha xalq bilan birga bo‘ladi! Nomzodlarimizga ovoz bering!

Dilorom FAYZIYEVA,
Dilmurod ARTIKOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar

O‘ZLIDEP

“Insonning haq-huquqlari va erkinliklarini ta’minlash barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi kerak, degan qat’iy tamoyilga tayanish — O‘zLiDePning asosiy vazifasi bo‘ladi.



TADBIRKORLAR VA ISHBILARMONLAR HARAKATI — O‘ZBEKISTON LIBERAL-DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Ayollarni bahorga o‘xshatamiz. Chunki u ham o‘z vaqtida qishning qorli-qirovli sinovlariga sabr etib, navbati kelgach, ko‘rki, tarovatini namoyon etaveradi. Ayol ham qalbidagi og‘riqlarga qaramay, go‘zalligini ko‘rsataveradi. Qahramonimiz taqdirini yer bilan bog‘lagan tanti qishloq ayoli. U mehnatni zahmat emas, baxt deb biladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 15-oktabr, 208-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

15-oktabr – Xalqaro qishloq ayollari kuni

QISHLOQ AYOLINING BAXT FORMULASI



Bugungi qishloq ayoli faqat sigir sog‘ib, non yopishdan bo‘shamaydigan inson emas. Uning dunyoqarashi turmush tarzi, orzu-istaklari o‘zgargan. Qishloq ayoli fermer, tadbirkor, xususiy korxona, maktab, bog‘cha rahbari.
Shunday ayollardan birining turmush tarzi haqida maqola tayyorlash maqsadida borganimizda qahramonimiz dalada traktor haydayotgan ekan.

— Ish qizg‘in, turmush o‘rtog‘im ikkimiz ikkita traktorda ishlayapmiz, kuzning har bir kuni g‘animat, — deydi oqdaryolik fermer Dilorom Bozorova.

Uning tabassumli yuzida sog‘lomlik barq urib turar, to‘qqiz yil oldin chekkan og‘ir dard nishonalari o‘rnini bugun ajib bir shijoat egallagandek. Hozir u traktor haydaydi, yer chopadi, sigir sog‘adi, tovuq boqadi, bog‘ parvarishlaydi.

Sinovlar... 2015-yilda Dilorom opaning boshiga og‘ir sinov tushdi. Bir kechada to‘satdan sog‘lig‘i yomonlashgan ayolga shifokorlar: “Jigaringizning ikki foizi ishlayapti, olti oylik umringiz qolgan”, deydi.

— O‘sha kunlarni eslasam qo‘rqib ketaman, avval hech qachon og‘rimagan, xastalik sezmagan edim. To‘satdan sog‘lig‘im yomonlashib, bir kechada shishib ketganman. Ko‘zimga dunyo qorong‘i bo‘lib ketgan edi. U paytlar yurtimizda jigar transplantatsiyasi yo‘lga qo‘yilmagandi. Hindistonda operatsiya qildirish mumkinligini eshitdik, ammo unga ham donor va juda katta mablag‘ kerak... Bizda esa buncha mablag‘ning o‘ndan biri ham yo‘q edi. Shunda, avvalo, yaqinlarim jonimga ora kirdi. Ba’zilari qo‘rqdi, ba’zilari o‘z jigarini taklif etdi. Bor bisotimizni sotdik. Qarindoshlar borini berdi. Lekin bu mablag‘ ham yetmasdi. Shunda yordam so‘rab, Prezident portaliga murojaat yo‘lladim. Murojaatim ko‘rib chiqilib, mahalliy hokimiyat vakillari qo‘llab-quvvatladi. Ularning yordami bilan Hindistonga boradigan bo‘ldim. Ko‘pchilikning ichida qizim o‘z jigarini bermoqchi bo‘ldi, lekin uning qo‘lida sakkiz oylik chaqalog‘i bor edi. Shunda farzandi onasiz qolishidan qo‘rqibmi, yo menga achinibmi, kuyovim o‘z jigarini bermoqchi bo‘lib, qat’iy turib oldi. O‘shanda qancha unamasin, kuyovimning namunalari mos kelmadi. Natijalarga ko‘ra, qizimniki menga ko‘proq mos keldi. Chaqalog‘i bo‘lishiga qaramay, u donor bo‘ladigan bo‘ldi...

“Dala — mening ovunchog‘im”

— Hozirgi dala ishlari sizga og‘irlik qilmaydimi? — deb so‘rayman ehtiyotkorlik bilan.

— O‘shanda Hindistonda og‘ir operatsiya o‘tkazib, bir yarim oyda oyoqqa turganman. Olti oy o‘tmay, dalaga chiqib ketganman. Dardni mehnat bilan yengganman. O‘zimni dala ishlarisiz tasavvur qilolmayman. Shu yer bilan qo‘shilib nafas olaman. 2005-yildan buyon fermerman. Shaharda ham uyimiz bor, lekin u yerda bir kun ham turolmayman. Qishlog‘imni sog‘inaman...



Opa chuqur xo‘rsinadi...

— Bilasizmi, hayot o‘zi doim meni sinab kelgan. Oilada 10 farzand edik. Onam erta vafot etgan. Undan keyin ukalarimga o‘zim onalik qilganman. Kolxozda oddiy ishchi edim. Traktor haydashni ham o‘shanda o‘rganganman. Keyin o‘qib, agronom bo‘lganman, — deydi Dilorom Bozorova.

Suhbatni davom ettirar ekanmiz, qahramonimizning o‘sha ta’riflagan donor qizi va kuyovi kelib qoldi. Opa esa ish bilan shoshib ketdi.

— Hindistonda hamma narsa tayyor edi. Jarrohlik amaliyoti boshlanishidan oldin onam to‘satdan o‘zgarib qoldi. U “Qizimni asrab qoling, uni sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘ymang. Bo‘ldi, operatsiya kerak emas”, deb faryod ura boshladi. Lekin men qat’iy turib, amaliyotni davom ettirishlarini talab qilganman. Amaliyot boshlandi, ko‘z oldimdan uyda qolgan chaqalog‘im, farzandim o‘tgan. Shukr, hammasi yaxshi bo‘lgan, — deya ko‘z yoshlari bilan eslaydi fermerning qizi Dildora.

Traktorchilikdan tadbirkorlik sari

Ha, hayot doim kutilmagan sinovlari bilan siylab turadi. Dilorom opa eng og‘ir damlarida dardini yonidagi Qoradaryoga aytgan edi. Achchiq-achchiq ko‘z yoshlar yumalagan bu daryodan o‘shandan buyon qancha suvlar oqib o‘tdi.

Suhbatni yakunlab, endi qaytamiz, deb tursak, traktorchi ayol bizni hayron qoldirib, zamonaviy “Hyundai” rusumli mashina haydab kelib qoldi. U endi o‘zgacha — zamonaviy tadbirkor ayol qiyofasida edi. “Sizlarni o‘zim kuzatib qo‘yaman. Bu dalalarda adashib qolmang tag‘in”, dedi jilmayib. Yo‘l-yo‘lakay aytib berishicha, Hindistondan kelgach, barcha ishni boshidan boshlabdi. Hozir kamida 20 ishchiga rahbarlik qilarkan. “O‘ndan ortiq texnikam, yuz gektar yerim bor”, deydi fermer.

Ayollarni bahorga o‘xshatamiz. Chunki u ham o‘z vaqtida qishning qorli-qirovli sinovlariga sabr etib, navbati kelgach, ko‘rki, tarovatini namoyon etaveradi. Ayol ham qalbidagi og‘riqlarga qaramay, go‘zalligini ko‘rsataveradi. Qahramonimiz taqdirini yer bilan bog‘lagan tanti qishloq ayoli. U mehnatni zahmat emas, baxt deb biladi.

Cho‘ponlar nega ko‘zoynak taqmaydi?

Cho‘l sharoiti, cho‘ponlar hayoti deganda injiq tabiatda, atrofi qum, yolg‘iz qo‘nalg‘ada yashovchilar, qo‘ni-qo‘shnisi yo‘q, dardkashi faqat sahro bo‘lgan kishilar ko‘z oldimga kelardi. Qo‘nalg‘asining devori toshdan, tomi loy aralash yantoq bilan suvalgan. U yerda elektr, internet yo‘q. Yoqilg‘isi yantoq, isitish moslamasi sandaldan iborat. Atrofida bo‘ri, shoqollar izg‘ib yuradi... Navbatdagi qahramonimizni izlab, Nurobod tumanining Olg‘a qishlog‘iga yo‘l olarkanmiz ko‘z oldimdan shular o‘ta boshladi. Qahramonimiz cho‘l bag‘rida yashovchi cho‘pon ayol — Zuhra Xidirova. U Nurobodning keng yaylovlarida uzoq yillardan buyon cho‘ponlik qilib keladi. Shu halol kasb orqasidan farzandlarini tarbiyalab voyaga yetkazgan. Bugun ular oliy ma’lumotli, yaxshi kasb egalari.

Manzilga kelsak, qo‘nalg‘a men tasavvur etgandek g‘aribona emas edi. Uy tomi shiferlangan, qulaygina boshpana. Yonida



zamonaviy avtomobil turibdi. Eng asosiysi, mo‘jazgina quyosh batareyasi borligi e’tiborimni tortdi. Otardagi qo‘ylar va cho‘ponlar uchun suv chiqaradigan artezian qudug‘i ham quyosh batareyasi yordamida ishlarkan.

— Ota-bobolarimiz cho‘ponlar avlodidan. Uch avlod shu kasb egalari bo‘lgan, — deydi Zuhra opa. — Mana 20 yildan oshdi, shu cho‘lda men ham cho‘ponlik qilib kelaman. Bu yil kayfiyatimiz yaxshi: ko‘klam seryog‘in kelib, o‘t-o‘lan mo‘l bo‘ldi. Qishlovga barcha tayyorgarlikni ko‘rib qo‘ydik. Kasbimni yaxshi ko‘raman. Keng dala, qo‘y-qo‘zilar hamrohim. Olis cho‘lda bo‘lsak-da, shu yumushlardan ortib, farzandlarimning ta’lim-tarbiyasi bilan ham shug‘ullandim. Ular yuzimizni yorug‘ qilib, oliy ma’lumotli bo‘ldi. Bir ayol nima orzu qilsa, shularning barchasiga erishyapman, deb o‘ylayman. Cho‘lda yashashimdan, cho‘pon ekanimdan hecham afsuslanmayman. Aksincha, faxrlanaman. Ko‘pchilikning tasavvurida “cho‘pon ayol” deganda turmushi qiyin, og‘ir mehnatli ayol gavdalanadi. Yo‘q, bugun unday emas. Masalan, men shu cho‘lda yashayotganimdan hech qachon armon qilmaganman.

Biz bilan ko‘rishgandan, xayrlashguncha opa qo‘lidan cho‘pon tayog‘ini qo‘ymadi, uni juda avaylar ekan. Bir qarashda oddiygina ko‘ringan cho‘pon tayog‘ida ko‘p ramziy ma’no bor ekan.

— Otamdan 27 yoshimda shu tayoqni qabul qilganimdan so‘ng cho‘pon degan mavqega erishganman, — deydi qahramonimiz. — Bu tayoqni otamga otasi bergan. U menga uzatdi, men esa farzandimga beraman. Bu tayoq ajdodlarimizdan meros. Biz uchun juda qadrli. U doim otamni eslatib turadi. Hatto bir bor hayotimni asrab qolgan, — deydi opa. — Bir kuni ochiq cho‘lda ikkita bo‘riga duch kelib qoldim. Atrofda hech kim yo‘q. Yordamga chaqirish befoyda. Bo‘rilar esa hujumga shaylanyapti. Shunda tayoqni olib havoda silkidim-da, xuddi miltiq ushlaganday o‘qtaldim. Bo‘rilar darrov qochib qoldi...

Opa va hamrohlari bilan suhbat shu asnoda qizib borardi. Bir-biridan qiziq ma’lumotlar esa diktofonimga muhrlanardi...

Aytishlaricha, dunyodagi eng o‘tkir ko‘z sohiblari cho‘ponlar. Bunga sabab faqat olislarga qadalgan nigohlar emas, balki cho‘ponlarning har oqshom gulxan atrofidagi o‘tirishi ekan. Ma’lum bo‘lishicha, o‘sha gulxan, asosan, cho‘l yantog‘idan yonadi va ko‘zning zahrini olarkan.


Cho‘ponlarning aksariyati sog‘lom bo‘ladi. Sababi ular ko‘p yayov yuradi. Deyarli dorixonaga murojaat etmasligi boisi, ehtimol, cho‘ldagi tabiiy giyohlar, tuya va echki suti, qatig‘ini iste’mol qilishidir.

Shukronalikda gap ko‘p. Inson qay manzilda, qay kasbda bo‘lmasin, o‘zi sevgan odamlar bilan birga, o‘zi yoqtirgan kasb bilan mashg‘ul bo‘lsa, asli baxti shudir. Shu o‘rinda opa istiqomat qiladigan cho‘ponlar qo‘nalg‘asidan olislay turib, katta shaharlarda internet yarim soat ishlamasa, TV kabeli o‘chib qolsa, taksi kechiksa... yuzaga keladigan betoqatliklar haqida o‘yladim. Inson shularsiz ham yashasa bo‘larkan-ku. Zuhra Xidirova kabi cho‘pon ayollar yuzida cheksiz sabot, hayot sinovlari izlari bilan birga, mag‘rurlik, o‘ziga yarasha baxtiyorlik, cheksiz toqat, kamtarinlik, bardosh namoyon. Ular deyarli go‘zallik saloniga bormaydi. Ko‘ngli tusab hadeganda bozor aylana olmaydi. Qo‘y boqadi, non yopadi, kir yuvadi, ovqat pishiradi, mehmon kutadi. Lekin hech qachon hech kimga hech nimadan nolimaydi... Shukronalik bilan qumda zar yaratadi.

Keta turib, kelishdagi tasavvurim o‘zgacha tus olgan edi...

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

Islohotlar – amalda



Surxondaryo — uchta davlat bilan chegaradosh. Sharq-u G‘arbni bog‘lovchi muhim savdo yo‘li chorrahasida joylashgan. Iqtisodiy salohiyati, investitsiyaviy imkoniyatlari keng. Biroq yaqin yillargacha hududning bu imkoniyatlaridan oqilona foydalanilmasdi.





SANOATLASHAYOTGAN SURXONDARYO: INVESTITSIYAVIY IMKONIYATLARI KENG MANZIL

Voha ahli turmush darajasini oshirish uchun uzoq yillar davomida “Viloyatda faqatgina agrar tarmoq istiqbolli. Ayni yo‘nalishni rivojlantirish zarur” degan birgina g‘oya ilgari surib kelinardi. Shu tushuncha ortidan Surxon vohasi chekka hudud sifatida rivojlanishdan ortda qolayotgandi.

So‘nggi yillardagi islohotlar vohaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tubdan o‘zgartirib, surxondaryoliklarning bugungi kunidan rozi bo‘lib yashashiga xizmat qilmoqda. Viloyatning asosiy drayverlaridan biri bo‘lgan agrar tarmoq qatorida sanoat, qurilish, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalar ham izchil rivojlanib, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Bu o‘zgarishlar viloyatning asosiy ko‘rsatkichlarida ham ifodasini topayotir. Jumladan, viloyatda yalpi hududiy mahsulot 2016-yil 12 trillion 179 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil yakunida 35 trillion so‘mdan oshdi. Shu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 trillion 200 milliard so‘mdan 7 trillion 298 milliard so‘mga yetkazildi. 2017-yilda 25 ming 674 korxona faoliyat yuritgan bo‘lsa, o‘tgan yil yakuni bilan 46 ming 250 tadan oshdi. Qurilish, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi tarmoqlarda ham yirik hajmdagi o‘sish sur’atlari kuzatilmoqda.

2023-yil 16-17-noyabr. Prezidentimizning Surxondaryoga navbatdagi tashrifi. Tashrif chog‘ida davlatimiz rahbari viloyatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish yuzasidan mas’ullarga qator vazifalarni belgilab berib, aniq yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tgan edi.

“Surxondaryo viloyatiga investitsiya jalb qilish va sanoatni rivojlantirishdagi eng katta zaxira — bu mavjud konlarni ishga solish”, degandi Prezidentimiz.

Qishda issiq, yozda salqin

Davlatimiz rahbari vohada, xususan, Sariosiyoda qo‘rg‘oshin, rux, oltin va oq marmar, Boysun va Sariosiyoda ko‘mir, Sherobodda kaliy o‘g‘iti zaxiralarini o‘zlashtirish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar bergandi. Tog‘li hududlarda geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish vazifasi qo‘yilgandi.

2017-yilgacha viloyatda 77 ta foydali qazilma koni davlat balansida qayd etilgan bo‘lsa, keyingi 7 yil davomida geologiya-qidiruv ishlari natijasida qo‘shimcha 1 ta qo‘rg‘oshin-rux, noruda qazilmalarning 28 ta yangi koni aniqlandi. Natijada hududda jami konlar soni 106 taga yetkazildi. Bulardagi xomashyodan foydalanish, qayta ishlashga qaratilgan e’tibor natijasi o‘laroq yangidan yangi sanoat korxonalari bo‘y ko‘rsatayotir.

Masalan, Termiz tumanida bazalt plitalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik zavod qurilyapti. Umumiy qiymati 26 million dollar bo‘lgan loyiha ishga tushirilishi natijasida 320 ta yangi ish o‘rni yaratilishi reja qilingan. Qolaversa, vohaning Oltinsoy tumanida mavjud bazalt zaxirasidan foydalanib, import o‘rnini bosadigan hamda eksportbop mahsulot ishlab chiqarilishi ko‘zda tutilgan. Davlatimiz rahbarining hududdagi mavjud konlarni ishga solish, tadbirkorlarni jalb qilgan holda zaxiralardan foydalanish yuzasidan bergan topshiriqlari ijrosiga jiddiy kirishilgan.

— Oltinsoy tumanida bazaltning katta zaxirasi mavjud, — deydi korxona rahbari Bahromjon Raupov. — Xomashyo Termiz tumanida ish boshlagan korxonamizga keltirilib, qayta ishlanadi va sotuvga chiqariladi.

Bazalt — ekologik mahsulot. Uning afzalligi — issiq va sovuqni o‘tkazmaydi. Ovoz o‘tkazuvchanligi ham juda past va yong‘inga chidamli. Mahsulot alohida qayta ishlashni talab etmaydi, kimyoviy bardoshli va uzoq vaqt davomida foydalanishga mo‘ljallangan. Bu material gidrofob. Unga tushgan suv ichkariga kira olmaydi, natijada issiqlik saqlash holati o‘zgarmaydi. Suvning hajm bo‘yicha so‘rilishi 2 foizdan ko‘p emas. Shu tufayli ham uy-joylar, ijtimoiy soha va sanoat obyektlarida undan issiqlik saqlovchi vosita sifatida foydalaniladi.

Bazalt plitalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonada kelgusida 320 dan ortiq kishining bandligi ta’minlanadi. Bu 700 ga yaqin oila doimiy daromad manbaiga ega bo‘ladi degani. Shuningdek, xorijiy mutaxassislarga mahalliy kadrlar biriktirilib, kelgusida malakali muhandislar tayyorlash ham maqsad qilingan.

Korxona Termiz erkin iqtisodiy zonasi hududida joylashgani bois, Prezidentimizning tegishli farmoni bilan qator soliq imtiyozlari berilgan. Bu esa ishlab chiqarish quvvati kengayishida muhim o‘rin tutadi.

Viloyatning shu kabi “o‘sish nuqtalari” belgilab berilgani endi hududda faqat qishloq xo‘jaligini rivojlantirib qolmay, qurilish, tadbirkorlik, sanoat va boshqa tarmoqlarni ham izchil yuksaltirmoqda. Xususan, sanoat sohasi rivojiga qaratilgan bunday yangi loyihalarning qo‘llab-quvvatlanishi hudud iqtisodiyotini mustahkamlash va aholi farovonligini ta’minlashda muhim asos bo‘lib xizmat qilayotir.

Oldin chiqindiga tashlanardi, endi eksportga yo‘naltirilmoqda

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ayni vaqtda Surxondaryo viloyatida 1 millionta yirik shoxli qoramol bor. Mazkur salohiyatdan unumli foydalanish maqsadida Angor tumanida charmdan poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi ish boshladi. Yillik 1,2 million kvadrat metr hajmdagi terini qayta ishlash quvvatiga ega zamonaviy klaster vohada charm sanoatini rivojlantirish istiqbollarini yaratadi.

Surxondaryoda avval bo‘lmagan bunday korxona vohadagi chorva mollari terisiga endi joyida xaridor topilganini anglatadi.

Italiya texnologiyasi bilan jihozlangan korxonaning umumiy qiymati 23 million dollar bo‘lib, yiliga 1,2 kvadrat metr tayyor charm, 450 ming juft poyabzal, 250 ming dona charm-attorlik mahsuloti, 5 ming tonna jelatin ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu degani, shu paytgacha chiqindiga chiqarilgan yoki kam miqdorda, arzon narxlarda boshqa hududlarga sotib yuborilgan chorva mollari terisi endi viloyatning o‘zida qayta ishlanadi. Muhimi, aholi chorva mollari terisini sotib daromad topish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Loyihaning birinchi bosqichida 210 ta doimiy ish o‘rni yaratilgan. Ishchi xodimlar uchun yotoqxona, 20 o‘rinli o‘quv markazi, oshxona va boshqa sharoitlarga ega yordamchi binolar zamon talablariga javob beradi.

“Top Qualty Brand” MCHJga tegishli korxonada qayta ishlangan teri mahsulotlari 100 foiz Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya, Italiya, Hindiston, Portugaliya, Germaniya kabi davlatlarga eksport qilinadi. Yillik eksport hajmi 15 million dollarni, budjetga tushum miqdori 4 milliard so‘mni tashkil etadi.

Eng to‘g‘ri yechim

Surxondaryoda qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 324 ming gektar qumli, cho‘l-dasht, tepalik va jarlik, toshloq va adir yer mavjud. Cho‘l-dasht hududlardagi bo‘sh yerdan oqilona foydalanish, degradatsiyaga uchragan yaylovlarni tiklash hamda qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yerga xos o‘simliklarni ekish orqali o‘tloqlar hamda chorva mollari sonini ko‘paytirish ham mumkin bo‘ladi. Buning natijasi o‘laroq, vohada mayda shoxli chorva mollari soni yana qo‘shimcha 100 ming bosh ortadi va 50 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Albatta, o‘zlashtirilayotgan, foydalanishga loyiq yerga dehqon qanchalik mehr bersa, undan oqilona foydalansa, yer ham unga kutilgan natijani tortiq etadi. Bugun qishloq xo‘jaligida yerdan oqilona foydalanish, birinchi ekindan bo‘shagan yerlarga takroriy ekin ekish orqali aholi daromadini oshirish, ayniqsa, ehtiyojmand oilalarga yer ajratib, kambag‘allikni qisqartirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kambag‘allikni qisqartirish ishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish masalalariga bag‘ishlab davlatimiz rahbari raisligida joriy yilning 11-sentabr kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham oxirgi yillarda 260 ming gektar yer 800 ming aholi, avvalo, yoshlarga dehqonchilik qilish uchun daromad keltiruvchi aktiv sifatida tarqatilgani ta’kidlandi.

Bu esa nafaqat ish o‘rni va daromad, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda juda to‘g‘ri yo‘l. Shuningdek, yig‘ilishda yil davomida yana 50 ming gektar yerni 100 ming kambag‘al oilaga bo‘lib berish rejalashtirilgani ma’lum qilindi.

Prezidentimizning joriy yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan yer ajratish borasida yangi tartib joriy etildi.

Qarorga ko‘ra, endi tuman hokimliklari zaxirasidagi 60 ming gektar yer elektron onlayn auksion savdolarga qo‘yilib, dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish uchun yoshlarga maqsadli ijaraga berilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan sotishgacha bo‘lgan zanjirni qamrab oluvchi yangi tizim joriy etildi. Talabgorlarga sug‘oriladigan ekin maydonlari, ko‘p yillik daraxtzorlar yoki samarasiz bog‘ maydonlari, chorva ozuqasi ekinlarini yetishtirishga mo‘ljallangan, lalmi, bo‘z, yaylov va yangi o‘zlashtirilgan yer maydonlari 30 yil muddatgacha “Bir hudud — bir mahsulot” tamoyili asosida “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga berila boshlandi. Bu imkoniyatlardan bugun surxondaryolik yigit-qizlar samarali foydalanmoqda.

Iste’molchidan sotuvchiga aylanayotgan xonadonlar

Surxondaryo mamlakatimizdagi eng quyoshli, issiq manzillardan biri. Vohada yilning taxminan 320 kuni quyoshli bo‘ladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda 547 mingta uy xo‘jaligi va 31 mingta ulgurji iste’molchi bor. So‘nggi 5 yil davomida elektr energiyasi iste’moli ham 22,6 foiz oshgan. Davlatimiz rahbarining “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida Surxondaryo viloyatida ham e’tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda

Tadbirkorlik subyektlarining 30,9 foizi o‘z binosiga quyosh panellari yoki kollektorlarini o‘rnatgan.



Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini oshirishda jismoniy va yuridik shaxslarning ham ishtirokini ta’minlaydigan mexanizm yo‘lga qo‘yilgan.

Ya’ni quyosh panellarini o‘rnatib, ehtiyojidan ortgan qismini hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga sotish imkoniyati yaratilmoqda.

Xususan, viloyatda quyosh panellari o‘rnatgan 571 ta iste’molchi tomonidan “Yashil energiya” platformasi orqali “Hududiy elektr tarmoqlari” AJlariga 3 million 251 ming kilovatt-soatdan ortiq elektr energiyasi sotilgan.

Bu esa mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda o‘rni va ahamiyati katta bo‘lgan tarmoqda endi tadbirkor fuqarolarning ham ulushini oshirib boradigan mexanizm yo‘lga qo‘yilganidan darak beradi.

Muxtasar aytganda, janubiy vohaning shonli o‘tmishi, bugungi zamonaviy qiyofasi, yaratilayotgan qulay infratuzilma viloyatning jozibador salohiyatini yanada oshirishga imkon bermoqda.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

Siyosat axloqdan suv ichmas ekan, u hech qachon haqiqat manbaiga aylanmaydi. Siyosatning axloqiy me’yorlar bilan sug‘orilmasligi jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit beqarorligiga sabab bo‘ladi.

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news | yuz

2024-yil 15-oktabr, 208-son

Tahlil va taqqos

AXLOQSIZLIK “YANGI AXLOQ”MI?



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Ana shunday murakkab zamonda o‘z vatani va millati kelajagini o‘ylagan har bir davlat qanday bo‘lmasin, mazkur muammoni hal etishga o‘zini mas’ul hisoblaydi. Shukrlar bo‘lsinki, mamlakatimiz rahbari bu masalada alohida tashabbus ko‘rsatib, ma’naviyat, ma’rifat, tarbiya masalasiga kelajakda taqdirimizni hal eta oladigan katta kuch sifatida e’tibor qaratmoqda.

Prezidentimiz Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining o‘tgan yil 22-dekabrda bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida bejiz kuyinchaklik bilan **“Azizlarim, tarbiyasi izdan chiqqan nopok kimsalardan ogoh bo‘laylik!”, “Farzandlarimizni ularning buzg‘unchi ta’siridan asraylik!”, “Kelajagimizni yovuz kuchlar qo‘liga berib qo‘yishga aslo haqqimiz yo‘q”, “Agar barchamiz birgalikda qat’iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz”**, demagan edi.

Bugun mamlakatimizda sog‘lom ma’naviy-mafkuraviy muhit yaratish umumxalq harakatiga aylanib borayotir. Hali ichki, hali tashqi tahdidlar tobora ko‘payib borayotgan bir sharoitda mamlakat rahbari odamlarni, ayniqsa, yoshlarimizni bunday tahdidlardan munosib himoya qilishning chuqur o‘ylangan strategiyasini ishlab chiqdi. Bunda ma’naviyat, ma’rifat, milliy axloq, ilm-fan, madaniyat, tarbiya masalalarining uyg‘unligiga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Shu o‘rinda xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodni bugun tobora ko‘payib borayotgan, e’tiqodi sust ba’zi yoshlarni o‘z domiga tortayotgan turli axloqsizliklardan asrash o‘ta jiddiy va muhim masaladir. Axloq aslida, ma’naviyat va tarbiyaning o‘zagi bo‘lsa-da, bugun ushbu fenomen hodisa katta siyosatga daxldor masalaga aylanib bo‘ldi. Ayrim davlatlar, turli nodavlat notijorat tashkilotlar, xalqaro korporatsiyalar o‘z manfaati, siyosiy maqsadi yo‘lida axloq masalasidan, yanayam aniqroq aytsak, ijtimoiy axloqsizliklardan foydalanishga e’tiborni tobora kuchaytirmoqda.

Shuning uchun hozir **qaysi davlat o‘z siyosati markaziga yuksak axloq masalasini qo‘ysa, o‘sha joyda bu borada muayyan muvaffaqiyatga erishish mumkin.** Mutafakkir Konfutsiy ikki yarim ming yillar avval bu haqda bunday degan edi: **“Hukmdor mamlakatni axloqiy fazilatga tayanib boshqarsa, u xuddi Qutb yulduzi singari muayyan joyda turib, yulduzlar qurshovida bo‘ladi”.**

Davlat boshqaruvida tarbiya, ayniqsa, axloq me’yorlariga suyanib ish yuritilgan joyda, shubhasiz, yutuqqa erishish mumkin. Yuqorida nomi tilga olingan muallifning ta’kidlashicha, xalq ma’muriy-buyruqbozlik bilan boshqarilsa, xatti-harakati iskanjalar yordamida tartibga solinsa, oddiy xalq jinoyat sodir etishdan majburan o‘zini tiyib turadi, lekin jinoyatning isnodligini anglab yetmaydi. Xalq muruvvat va ishontirish yo‘li bilan, axloq qoidalari, adolatga asosan boshqarilsa, bunday xalq egri ish qilish isnodligini tushunadi.

Yurtimizdan yetishib chiqqan mutafakkirlar asarlarida ham ma’naviyat, ma’rifat va axloq masalalariga juda katta e’tibor beriladi. Axloq hattoki qonun kuchiga ega bo‘lishi lozimligi qayd etiladi.

Haqiqatan shunday: **milliy qadriyati boy, azaldan tarbiya masalasiga, yoshlar kelajagiga alohida ahamiyat bergan xalqlarda axloq davlat qabul qilgan qonunlardan ham ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi.** Shu ma’noda, agar biz qonun ustuvorligini axloqiy me’yorlar ustuvorligi bilan uyg‘unlashtira olsak, jamiyatni tom ma’noda ma’naviy-mafkuraviy barqarorlashtirishga erishamiz. Shu o‘rinda buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning odamlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarga erishishni istab, iltijo qilib, ularni o‘zlashtirishga e’tibor berishi kerak, toki axloq qonuniy, maqtovlarga sazovor va ilohiy bo‘lib qolsin, degan fikrlarini eslash kifoya.

Ushbu fikr-mulohazalar bizni quyidagi xulosaga olib keladi: bugun axloq inson, jamiyat va davlat taqdirini hal etuvchi eng ustuvor masalaga aylanib bo‘ldi. **Avvallari jahon maydonidagi muhim siyosiy masalalarni hal etishda qurolli to‘qnashuvlar, harbiy yo‘llar kuchiga ustuvor o‘rin berilgan, keyinchalik esa siyosat va diplomatiyaning ta’sirchan kuchidan foydalanilgan bo‘lsa, endi bu masalani axloq, aniqrog‘i, odamlar orasida axloqsizlik ko‘rinishlarini keng targ‘ib etish asosida hal etishga urinish kuchayib bormoqda.**

Bugun dunyoning harbiy-siyosiy, mafkuraviy muammolarini axloq hodisasi bilan hal etishga urinish insoniyatni jar yoqasiga olib kelayotgan xavf-xatardan boshqa narsa emas. Shu ma’noda, bugun axloqsizlik insoniyatni tubsiz jarga uloqtiradigan soxta qadriyatga aylanib bo‘ldi.

Shu o‘rinda **bugungi axloqsizlik falsafasining mohiyatini odamlarda ma’naviyat va ma’rifatga, tarbiyaga tabiiy ehtiyojning yo‘qolib borishi bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lardi.** Darhaqiqat, insonning o‘z axloqiy sifatlarini shakllantirishga har bir urinishi tabiiy mazmunga ega. Chunki har birimiz yoshlikdan xalqimizga ming yillar davomida singdirib kelinayotgan milliy qadriyatlar, milliy tarbiya orqali ehtiyojlarimizni shakllantiramiz va ularni yangi sifatlar bilan boyitishga harakat qilamiz. Shu ma’noda, ma’naviyatga, tarbiyaga, milliy axloqqa ehtiyojimiz tabiiy harakatimizning asosini tashkil etadi.

Ana shu harakatimiz endi axloqsizlik falsafasining kuchli ta’siri ostida yemirilmoqda, zarbaga uchramoqda. Bugun ikki yuz ellikka yaqin davlatning 20 dan ortig‘ida bir jinslilar nikohi qonuniylashtirilgani, bu holatning Osiyo davlatlarida ham paydo bo‘la boshlagani aslida, axloqsizlik falsafasi hosilasidir.

Ba’zi davlatlarda shaxs tug‘ilishini ro‘yxatga olish hujjatida “otasi”, “onasi” deb yozilgan yozuvlarni ayollar huquqini erkaklarniki bilan tenglashtirish bahonasida inkor etish borasidagi harakatlarni axloqsizlik falsafasining jirkanch “mevasi”, demasdan nima deyish mumkin?

Axloqsizlik falsafasining eng xatarlisi, o‘zbek milliy qadriyatlari orasida muqaddas hisoblangan nikohni isloh qilishga zo‘r berilmoqda. O‘sha soxta falsafaning g‘oyalariga binoan nikoh, shu asnoda oila instituti qadimda tirikchilik o‘tkazish ehtiyojini qondirish maqsadida zo‘ravonlik negizida vujudga kelgan emish. Shuning uchun ham ayrimlar hozirgi ko‘rinishdagi oila yo‘q qilinishi kerak, nikoh yo‘q qilinmas ekan, erkak va ayollar o‘rtasidagi tengsizlikka hech qachon barham berilmaydi, demoqda baralla.

“Ommaviy madaniyat” to‘g‘risida ko‘p gapiradigan bo‘lib qoldik. Buning sababi shundaki, u endi eshiklarimizni baralla qoqib kelmoqda. Bunday o‘ta xatarli ofat yurtimizda ham o‘zini erkin his etib yuribdi. U targ‘ib etayotgan qadriyatlardan biri — **jinsiy mayl onalik baxtidan ancha yuqori turadi**.

Bugungi axloqsizlik falsafasi tarafdorlari axloqsizlikni “yangi axloq”, deya oqlashga harakat qilmoqda. Boshqacha aytganda, bugungi ijtimoiy taraqqiyot mazmunini sog‘lom axloq va axloqsizlikning beayov jangi sifatida tasavvur qilish mumkin. Ming yillar davomida shakllangan, odamlarning yaratish, kashf etish, iqtidorini tarbiyalashga qaratilgan milliy qadriyatlarga suyangan, o‘z yurtidan yetishib chiqqan, shuningdek, insoniyatning ilg‘or g‘oyalari asosida tafakkur tarzini takomillashtirishga harakat qilgan, o‘zini o‘zi taraqqiy ettirishga ehtiyoj sezgan har qanday inson axloqsizlikning barcha ko‘rinishiga zarba bera oladi.

Ayni paytda **e’tiqodi sust, o‘zligini yo‘qotgan, milliy tarixi, madaniyati, axloqidan ruhiy quvvat olishni bilib-bilmasdan inkor etadigan har qanday inson “yangi axloq”ning quliga aylanib qolaveradi.**



Xo‘sh, “yangi axloq” nimaga da’vat etyapti?

Birinchidan, “yangi axloq” tarafdorlari, eng avvalo, jamiyatda ming yillar davomida shakllangan va ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan barcha qadriyatni taraqqiyotga to‘siq sifatida inkor etadi. Ularning nazdida eski narsalarning barchasi illat. Zino, abort, evtanaziya, suiqasd, suitsidni bugun insoniyat erishgan yutuq sifatida baholaydi. Milliylik, o‘zlik, ruhiy yaqinlik kabi me’yorlarni rad etadi.

Ikkinchidan, “yangi axloq” tarafdorlarida individualizm ruhiyati juda kuchli bo‘ladi. Jamoa, jamiyatda yashash, ijtimoiy birlik, xalq manfaatlari kabi tushunchalar ular uchun mutlaqo begona. Bunda har bir kishi **faqat o‘zi uchun** zarur bo‘lgan “qadriyatlar” tizimini yaratadi. Bunday tizimning poydevori individualizm, gedonizm, kosmopolitizmdan iborat bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ular uchun insoniyat tomonidan ming yillar davomida yaratilgan tom ma’nodagi qadriyatlar “ortiqcha matoh”.

Uchinchidan, “yangi axloq” tarafdorlari strategiyasida hokimiyatni qo‘lga olish, o‘z soxta qadriyatlarini davlat qonunlari bilan mustahkamlash alohida o‘rin tutadi. Bunga misollar bugun qalashib yotibdi. Bir jinslilar nikohining qonuniylashtirilishi, oila, farzand tarbiyasi bo‘yicha davlat va “yangi axloq” tarafdorlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, qonun yaratuvchi va qabul qiluvchilarning qaror qabul qilishdagi e’tiqodsizligi — bularning bari bugungi dunyoda “yangi axloq” tarafdorlari tobora ko‘payib borayotganidan darak.

To‘rtinchidan, “yangi axloq”chilar jamiyatni fazilatli va illatli jamiyatlarga bo‘lib tashlaydi. **Qadriyatlarning qadrsizlanishi tufayli ular iyerarxiyasida “erkin sevgi”, “oilasiz jamiyat”, “jinsiy birlik” kabi tushunchalar ustuvorligi yuzaga keladi.** Oqibatda jamiyatlarning bo‘linish hodisasi yuz beradi. Milliylik, o‘zlikni saqlab qolishga intilayotgan, millat va mamlakat birligini muqaddas hisoblagan sog‘lom “konservatorlar” bilan insonni ma’nan va ruhan ezib, falaj holatga olib keladigan “radikallar” o‘rtasida beayov kurash kuchayadi.

> Ayni paytda e’tiqodi sust, o‘zligini yo‘qotgan, milliy tarixi, madaniyati, axloqidan ruhiy quvvat olishni bilib-bilmasdan inkor etadigan har qanday inson “yangi axloq”ning quliga aylanib qolaveradi.

Beshinchidan, “yangi axloq” tarafdorlari an’anaviy axloqning yemirilishini ijtimoiy taraqqiyot g‘alabasi, yangining eski ustidan ustuvorligi sifatida madh etadi. Ular o‘y-xayolini jamiyat hayotida shakllangan, odat tusiga kirgan har qanday qoida, tamoyil va qonunlarni, o‘tmishni butunlay inkor etishdan iborat nigilizm g‘oyasi band qiladi. **O‘tmishga nisbatan nafrat hissi shakllanishi bu g‘oya asosining ma’no-mazmunini tashkil etadi.**



Shuningdek, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmagan, biror-bir ijtimoiy tabaqa, guruhga ega bo‘lmagan, faqat o‘zining individual manfaatlari bilangina yashaydigan, boshqacha aytganda, arosatda qolgan kimsalar kayfiyatidagi marginallarning shakllanishi ham “yangi axloq” tarafdorlaridan iborat bo‘ladi. Bundaylar odatda o‘z fikriga ega bo‘lmaydi, doim ruhiy beqaror va tushkun yuradi.

Oltinchidan, “yangi axloq” tarafdorlarida vatan tuyg‘usi, yurtidan g‘ururlanish, uni har qanday vaziyatda himoya qilishga shaylik hissi bo‘lmaydi. **Kosmopolitizm — vatansizlik g‘oyasi bunday axloqning mazmunini tashkil etadi.** “Dunyo fuqarosi”ga aylanish har bir “yangi axloq” tarafdorining orzusidir. Ularning qarashiga asosan har qanday mamlakat yoki millatning ulug‘lanishi boshqalarga, ayniqsa, qo‘shnilarga nisbatan ishonchsizlik hollariga, ba’zan esa qurolli to‘qnashuvlarga olib kelar ekan.

Yettinchidan, ushbu axloq mo‘ljaliga binoan ular uchun eng qulay vaziyat mamlakat va jamiyatdagi beqarorlikdir. Chunki ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy beqarorlik davlat hamda barcha tuzilmasidagi uyushqoqlik va mutanosiblikni izdan chiqaradi, tartibsizlik hamda boshboshdoqlikka yo‘l ochib beradi.

Insonning mohiyatini aniqlashda axloqi bilan axloqsizligining farqini bilish alohida o‘rin egallaydi. Biroq bu farqni hamma ham bilavermaydi, anglayvermaydi. Buning uchun bizga ikki muhim fenomen hodisa kerak. Birinchisi aql bo‘lsa, keyingisi — ma’naviyat.

Yana bir gap: insonning ongli faoliyatini tartibga solish o‘ta qiyin. Bu jarayonda har birimiz olgan bilimimiz, to‘plagan amaliy tajribamizga suyanamiz. Ayni paytda faoliyatimizni tartibga solishda davlat tomonidan qabul qilingan va jamiyat tarafidan e’tirof etilgan qonunlarning o‘rni ham katta. Umuman olganda, demokratik jamiyatni barpo etishda qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini boshqa biror qadriyat, narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Bu — aksioma.

Ammo shuni unutmaslik lozimki, qonunlar har bir jamiyatda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Masalan, **G‘arb davlatlaridagi qonunlar o‘sha xalqning mentaliteti, qadriyatlari, uzoq davrlar davomida to‘plangan ijtimoiy tajribasidan, qabul qilingan axloqiy me’yorlaridan ustun tursa, Sharq xalqlarida, jumladan, O‘zbekiston sharoitida insonning qonunlar va axloqiy normalarga nisbatan munosabati o‘zgacha.**

Ta’bir joiz bo‘lsa, bizda shaxsning milliy axloqqa, umuman, an’anaviy qadriyatlarga munosabati mavjud qonunlarga qarashlaridan kam emas. Ayrim hollarda aholining milliy axloqqa munosabati barcha munosabatlar silsilasida ustunlik qilishi ham mumkin.

Nazarimda, milliy axloqimiz mazmun-mohiyatida “ijtimoiy uyalish” hissi alohida ahamiyat kasb etadi. “Ijtimoiy uyalish” kishilarning asrlar davomida shakllangan, uzoq davrlarda ijtimoiy tajribadan o‘tgan, xalqimizning yaratuvchilik faoliyati mobaynida rivojlangan yuksak e’tiqod hissi sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazarimizda, ushbu “ijtimoiy uyalish” hissi bir tomondan milliy axloqning ustuvorligini ta’minlasa, boshqa tarafdan, mavjud qonunchilikka amal qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bugun dunyoning haddan tashqari tez globallashuvi, turli ichki va tashqi g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qaramasdan xalqimizning o‘zligini saqlab qolish, qadriyatlarimizga sodiqlik hissi yo‘qolmasligini shu ma’noda tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

Tadqiqotchi Yulo Vooglaydning ta’kidlashicha, insonning xulq-atvori va ijtimoiy hayoti asosan axloq bilan tartibga solinadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, insonlardan 60 foizining xulq-atvori vijdonga, bilimga va axloqiy me’yorlarni hurmat qilishga bog‘liq. Axloqni hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. **Agar axloq ishlamasa, jamiyatdagi barcha institut — tashkilotlar, jamoalar, oilalaru boshqa hamma narsa zulmatga yuz tutadi.**

Muallifning bunday qat’iy xulosaga kelishini, “axloqsiz jamiyatning zulmatga yuz tutishi”ni uning G‘arb dunyosidagi bugungi real holatni chuqur o‘rganishi natijasida chiqargan sabog‘i tufayli, deb bilish mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan ayon bo‘lmoqdaki, haqiqatan, tarbiya, axloq masalasi bugun jahoniy mazmun kasb etmoqda. Har qanday davlat va jamiyatda ushbu masalaga qaratilgan e’tibor, axloqning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini to‘g‘ri belgilash, so‘zsiz, ijtimoiy taraqqiyotga yo‘l ochadi.

Shu o‘rinda siyosat va axloq masalasiga, ularning o‘zaro mutanosibligiga alohida e’tibor kerak, deb o‘ylaymiz. Davlat yuritadigan har qanday siyosat inson manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Davlat tomonidan turli axloqsizliklarga yo‘l ochib berilishi kechirib bo‘lmas axloqsizlikdir. Bunga misol ko‘p.

Masalan, mustabid sovet tuzumi sharoitida milliy axloqimizning sof manbai bo‘lgan islom diniga munosabat, milliy o‘zlikni tarannum etishga bag‘ishlangan asarlar yaratgan ziyolilarning qatag‘on qilinishi, qadriyat va an’analarga eskilik sarqiti sifatida taqiq qo‘yilishi – bularning bari siyosatdagi axloqsizlikdan boshqa narsa emas edi.

Shu ma’noda, **siyosat axloqdan suv ichmas ekan, u hech qachon haqiqat manbaiga aylanmaydi. Siyosatning axloqiy me’yorlar bilan sug‘orilmasligi jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit beqarorligiga sabab bo‘ladi.**

Shuning uchun ham mamlakatimizda fuqarolar, ayniqsa, jamiyat, davlat va millat kelajagi bo‘lgan yoshlar tarbiyasiga ustuvor darajada e’tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu holat davlat siyosatida ham o‘z aksini topmoqda. Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 21-, 33-, 44-, 71- va 79-moddalarida “axloq” so‘zi ishlatilgan. 21-, 33-, 71-moddalarida esa ijtimoiy axloq masalasiga e’tibor berilgan.

Xo‘sh, nima uchun 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyamizning birorta ham moddasida “axloq” so‘zi ishlatilmagan bir vaziyatda endi mazkur masala alohida diqqatga sazovor bo‘lmoqda? Buning birdan-bir sababi ijtimoiy taraqqiyotning bugunga kelib ham dunyo miqyosida, ham uning ta’sirida mamlakatimizda turli ichki va tashqi ma’naviy-mafkuraviy ta’sirlar tufayli axloqsizlikning avvallari insoniyat tasavvuriga ham sig‘dira olmagan ko‘rinishlari tobora ko‘payib borayotganida, deb o‘ylaymiz.

Axloqsizlikning ijtimoiy mazmunga ega bo‘lib borayotgani haq gap. Endi bundan qochib qutulish qiyinga o‘xshaydi. Chunki ijtimoiy tarmoqlar insoniyat hayotiga shu darajada chuqur kirib boryaptiki, uni go‘yo barchamizni hamma tomondan siqib kelayotgan, o‘zining domiga tortib kelayotgan “sprut”ga qiyoslash mumkin. **Biroq hozir “taqdirga tan berib” o‘tiradigan payt emas. Harakat qilish, murakkab ma’naviy-mafkuraviy vaziyatdan qutulish choralarini ko‘rish kerak.**

Bu haqda ko‘p gapirilmoqda. Mamlakatimiz rahbari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida ham, keyinchalik yana qator tadbirlardagi nutq va ma’ruzalarida ham jamiyatda mustahkam ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlash, xalqimizni turli mafkuraviy-g‘oyaviy tahdidlardan asrab qolish jamiyat hamda millat kelajagi uchun juda muhim ekani to‘g‘risida kuyinib gapirdi, maslahatlar berdi.

Bu borada qator tashkiliy masalalar hal etildi. **Bir so‘z bilan aytganda, aholini turli axloqsizlik, “yangi axloq”dan asrab qolish bo‘yicha davlat va mamlakat rahbari tomonidan qilinishi lozim bo‘lgan barcha ishlar bajarildi. Nazarimda, endi hamma gap o‘zimizda qoldi.**

Milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz, urf-odatlarimiz, axloqimizga zid, xalqimiz doimo qoralab kelgan turli illatlar oldida ojizligimizni ko‘rsatish, milliy taraqqiyotimizni to‘xtatishga, sekinlashtirishga qaratilgan ichki va tashqi tahdidlarni oqilona tahlil eta olmasligimiz, yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata olishdagi tajribasizlik va uquvsizlik — bularning bari ijtimoiy tarmoqlar quliga aylanishimizni tobora yaqinlashtirib boraveradi.

Xalqimiz “Yaxshi bilan yursang — yetarsan murodga, yomon bilan yursang — qolarsan uyatga”, deb bejiz aytmagan. Yaxshilar bilan birga bo‘lish, ulardan tajriba o‘rganish, illat bilan fazilatning farqiga borish doimo muhim ahamiyat kasb etaveradi.

Shu o‘rinda buyuk bobomiz Xoja Samandar Muhammad ibn Baqo Termiziyning 1695-yili yozilgan “Dastur ul-muluk” (“Podshohlarga qo‘llanma”) asaridagi quyidagi fikrlarni keltirishni lozim topdik: **“Azizim, fosiq, axloqsiz va nodon odamlar suhbatida bo‘lishdan hazar qil. Aqli raso, bilimdon odamlarga xizmat qilishni o‘zingga majburiyat qilib ol va ulardan aslo tortinma. Chunki axloqsiz, o‘qimagan, johil va odobsiz kishilar bilan munosabatda bo‘lish qora ilonni oziqlantirish bilan barobar bo‘lib, u qachondir zarar yetkazadi, attorchilik sandiqchasiga monand bo‘lgan yaxshi, aqli raso, bilimdon insonlar bilan birga bo‘lish, uchrashib turish, muomala qilish foydadan xoli bo‘lmaydi”**.

Shu o‘rinda yana bir muhim masala xususida ba’zi fikrlarni aytishni lozim topdik. Gap rahbar ma’naviyati ustida ketmoqda. Ma’lumki, barcha katta-kichik rahbarlar ma’naviyat, ma’rifat, tarbiya, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni xususida to‘lib-toshib gapirishni yaxshi ko‘radi. Bu bo‘yicha yuzlab, minglab majlislar, yig‘ilishlar, tadbirlar, konferensiyalar, treninglar, mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Biroq bu tadbirlarning jamiyatda ijtimoiy axloqni yaxshilashga ta’siri haqida esa o‘ylab ko‘rmaymiz. Ta’lim muassasalarida, tashkilot va idoralarda bo‘lib o‘tgan tadbirlar ta’sirini o‘tkazganda edi, bu jamiyatda “yangi axloq”qa joy topilmasdi.

Buning ham sabablari ko‘p. Ayni paytda katta-kichik idora, muassasalar ayrim rahbarlarining ma’naviyati, axloqiy qarashlari, umuman, milliy axloqqa munosabati munosib darajada emasligini ham tan olish lozim. Jamiyatda mustahkam ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirmoqchi, aholi, ayniqsa, yoshlarimizni buyuk qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalamoqchi bo‘lsak, shubhasiz, bu o‘rinda barcha katta-kichik rahbarlar o‘rnak bo‘lishi lozim. Ammo ayrim ijtimoiy tarmoqlarda ba’zi rahbarlarning “xurmacha” qiliqlari jamiyatda norozilik bilan kutib olinmoqda.

Yana bir masala bor: odatda turli rejalar, belgilangan vazifalar, asosan iqtisodiy masalalarni hal etishdagi kamchiliklar, xatolarga yo‘l qo‘yilganda o‘sha tashkilot, muassasa, idora rahbarlariga turli ma’muriy, jinoiy jazolar belgilanadi. Bu o‘sha rahbarlarning faoliyatini tartibga solishga, ishga mas’uliyat bilan yondashishiga imkon beradi.

Ammo mazkur tashkilot, idorada, deylik, tuman, shahar miqyosida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar o‘lda-jo‘lda bo‘lgan joylarda, turli sabab natijasida ijtimoiy-ma’naviy muhitning muayyan ma’noda beqarorlashuvi bilan bog‘liq holatlarda deyarli hech kim, ayniqsa, o‘sha hududlar rahbarlari hech qanday jazoga tortilmaydi. Ushbu holat bunday rahbarlarda tarbiya, axloq masalalariga e’tiborsizlikni, ma’naviyat va ma’rifatni tan olmaslikdan iborat yaramas illatni keltirib chiqarmoqda.

Haqiqatan, jamiyat a’zolarini sog‘lom axloq asosida tarbiyalamoqchi bo‘lsak, shubhasiz, rahbar ma’naviyati masalasiga o‘ta jiddiy e’tibor berish kerak.

Shu bois, qaysi rahbar o‘zi boshqarayotgan tashkilot, idora, muassasada adolat, insof, diyonat asosida ish yuritsa, faoliyatida axloqiy mezon va me’yorlarga keng e’tibor bersa, bu borada boshqalarga o‘rnak bo‘la olsa, shubhasiz, o‘sha joyda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit vujudga keladi. Odamlarda kelajakka umid shakllanadi, hayotimiz axloqiy mezonlarga tayangan holda davom etadi.

Maqolamizni bejiz “Axloqsizlik “yangi axloq”mi?” deb nomlamadik. Dunyoning o‘zgarishi, odamlar tafakkuridagi evrilishlar, turli sivilizatsiya va madaniyatlararo to‘qnashuvlar, mafkuraviy-ma’naviy ziddiyatlar, ular ortidan paydo bo‘layotgan axloqsizliklarni “yangi axloq” deyuvchilar soni, haqiqatan, ortib bormoqda. Mana shunday paytda bunday tahdidlar mohiyati tezroq anglangan, ularga qarshi aql, farosat bilan kurashish tajribasiga ega bo‘lingan, kelajak taqdiriga befarq bo‘lmagan joyda, shubhasiz, taraqqiyot, barqarorlik, inson qadriga so‘zda emas, amalda yetish jarayoni yuz beradi.

Axloqiylikning ayrim ko‘rinishlari insonning xatti-harakatlarida namoyon bo‘lsada, tom ma’nodagi axloqiy sifatlari individning ruhiyatida makon topadi. Axloqiylik har birimizning botinimizda yashaydi. Ana shunday sifatlar asosida tarbiya topamiz, o‘zimizni isloh qilishga ehtiyoj sezamiz. Pirovard natijada real hayot va axloqiy ideal o‘rtasidagi chegaralarni tobora qisqartirib boraveramiz.

Behzod Madraimovning otasi mahallaning qo‘ligul ustasi bo‘lgan. O‘z davrida uylarning tomini yopgan, suvoqchilik ham qilgan. Shu bois, qahramonimiz ham bolaligidan shu hunarga qiziqqan. Kasbi injener-texnolog bo‘lishiga qaramay, yog‘ochdan turli buyumlar yasashga vaqt topadi. Ildizlardan har xil ashyolar yasay boshlaganiga esa 15 yil bo‘ldi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 15-oktabr, 208-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz



BITTA DARAXT ildizidan

Hunardan rizqing unar

70 MILLION SO‘M

YOXUD USTAXONA UCHUN QACHON YER BERILADI?

Gulistondagi baxshichilik festivalidan so‘ng qayerda daraxt to‘ngagi yoki qo‘porilib yotgan ildiziga ko‘zim tushsa, yangiyo‘llik usta Behzod Madraimovga ilinadigan bo‘ldim. Zero, O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib ildizni xomashyoga aylantirgan, uni qidirib tog‘largacha chiqadigan hunarmand bilan birinchi marta o‘sha festivalda suhbatlashgan edik.

O‘shanda 70 ga yaqin davlatdan kelgan sayyohlar u yasagan ashyolarni alohida qiziqish bilan tomosha qilgan, esdalik uchun sotib olgan edi. Masalan, usta ildizdan yasagan shaxmatni 14 million so‘mga sotganiga guvoh bo‘lgan edik. Uni sotib olgan sayyoh hunarmandga mehnati uchun minnatdorlik bildirgandi.

Yo‘l boshida

Behzod Madraimovning otasi mahallaning qo‘ligul ustasi bo‘lgan. O‘z davrida uylarning tomini yopgan, suvoqchilik ham qilgan. Shu bois, qahramonimiz ham bolaligidan shu hunarga qiziqqan. Kasbi injener-texnolog bo‘lishiga qaramay, yog‘ochdan turli buyumlar yasashga vaqt topadi. Ildizlardan har xil ashyolar yasay boshlaganiga esa 15 yil bo‘ldi.

Kasbi tufayli Moskvaga borib, bir do‘stining uyida mehmon bo‘ladi. O‘sha yerda do‘stining keksa otasi ildizdan yasagan buyumlarni ko‘rib, hayratlanadi. Mehmonning hayratidan hunarga mehrini sezgan otaxon undan kasbini so‘raydi. Injener-texnolog ekanini bilgach, “Bu hunarni o‘rgan, senda qiziqish bor. Odamlar dunyoni oq-qora rangda ko‘rsa, ijodkorlar rangin ko‘ra oladi. Sen ham shundaylardansan”, deydi. Shundan so‘ng ikkisi uzoq suhbatlashadigan bo‘lib qoladi. Behzod aka otaxon bilan gaplashgani sari ildiz ilmiga chuqur kirib boradi. Nihoyat, shogird bo‘lib, ustozidan 10 yil ta’lim oladi.

— Aslida, o‘zim uchun o‘rganaman deb shogird tushgandim. O‘n yil Moskvada ishlab, bu hunarni ham o‘rgandim. Keyin Xitoyda ishlaganimda ham 2 yil shogird bo‘lib, bilimimni yanada mukammallashtirdim. Ochig‘i, shartnoma muddati tugab, O‘zbekistonga kelayotib, bu hunar bilan shug‘ullanishga bizda sharoit yo‘q, faoliyatimni chet elda davom ettiraman deb o‘ylaganman, — deydi usta. — Dastlab oilamiz uchun u-bu narsalar yasab ko‘rdim. Binoyidek chiqdi. Qo‘ni-qo‘shnilarga ham ma’qul bo‘lib, buyurtma bera boshladi. Keyin faoliyatimni yurtimizda yuritishga qaror qildim. Hunarmand uyushmasiga a’zo bo‘ldim. Ko‘rgazmalarda qatnasha boshladik. Mahsulotlarimiz noyobligini odamlar sezdi. Mehnatimiz qadr topdi. Shu tariqa qiziqishim biznesga aylandi.

Nega aynan ildiz?

Qadimda bir podsho dang‘illama saroy qurishni buyuribdi. Quruvchilar aytilganiday qasrni bunyod etibdi. Biroq bino tez orada nurabdi. Qayta qurilish boshlanibdi. Ammo yangi imorat ham nuray boshlabdi. Quruvchilar nima qilishni bilmay turganida bir donishmand kelib, ularga qurilishdan oldin saroy atrofiga tut ekishni maslahat beribdi. Shunday qilingan ekan, bino nuramabdi. Buning sababi so‘ralganda donishmand: “Tut daraxtining ildizi mustahkam bo‘lib, aynan sho‘rni va sizot suvni o‘ziga tortadi”, deb javob beribdi. Masjid va minoralar, imoratlar yaqinida tut ekish odati shundan saqlanib qolgan ekan.

Behzod aka aytgan gaplar ham qaysidir ma’noda donishmandning fikri asosli ekanini tasdiqlaydi.

— Ildiz o‘sgani sari tosh va qumni o‘ziga singdirib oladi. Shuning uchun uni ishqor bilan obdan yuvamiz. Quritib, kesib, kerakli joylarini olamiz. Nima uchun aynan ildizni xomashyo sifatida ishlatamiz? Chunki uning strukturasi umuman boshqacha. Juda mustahkam. Daraxtga qaraganda 24 barobar kuchli. Daraxt to‘g‘ri tepaga qarab o‘ssa, ildiz yer tagida istagan tomoniga qarab erkin o‘sadi. Bir-biriga zichlashib ketadigan shoxchalar jipslikda daraxtni tik tutib turishga xizmat qiladi. Shu holatda ular ajoyib naqshlar, to‘qilgan savatni eslatadi. Bunday shakl esa bizga juda qo‘l keladi. Chizma qilib, asosini yasab olamiz va 90 foiz tabiiylikni saqlagan holda noyob buyumlar yasaymiz. Jarayonda tabiat yasagan mo‘jizaning yarmini qoldirishga harakat qilamiz. Masalan, bitta soat yasasak, ildiz shakli qanday bo‘lsa, shunday qoladi. Shundan 10 ta yasab bering, deb necha million so‘m va’da qilsayam, boshqa yasab berolmaymiz. Chunki tabiatda bunday shakl boshqa yo‘q. O‘xshashi bo‘lishi mumkin, aynan o‘zi bo‘lmaydi. Sotib olgan odam bunday buyum boshqa hech kimda yo‘qligi bilan faxrlanadi. Shuning uchun mahsulotlarimiz eksklyuziv. Ko‘proq sayyohlar bunday ashyolarga qiziqish bildiradi. Aslida, maqsadimiz ham shu. Noyoblik, eksklyuzivlik bilan xorijliklarni qiziqtirish, turizm rivojiga hissa qo‘shish. Ildiz rangini ham aslicha qoldiramiz, sun’iy rang bermaymiz. Faqat namlikdan saqlash uchun rangsiz lok sepiladi. Boshqa tomondan ildiz arzon xomashyo. Ba’zan chiqindixonalarga tashlab ketiladi. Ularni shundoq olib ketamiz. Gohida xonadonlar, daraxt kesilgan joylardan sotib olishga to‘g‘ri keladi. Bunda qanchasi chirigan, qanchasi yaroqli ekani hisoblanib, savdolashiladi. Hamma ildiz ham birdek yaroqli bo‘lavermaydi-da. Iqlimga bog‘liq holda chirib qolgani ham ko‘p uchraydi. Tog‘lardagi ildizlar toza bo‘ladi. Klyon daraxti, baqaterak ildizi ham oppoq, chiroyli o‘sadi. Yong‘oq daraxti juda mustahkam, olma ildizi zich, tutniki ham chidamli bo‘ladi. Olxo‘ri bilan o‘rik daraxti qizg‘ish rangga ishlatiladi. Mevali daraxtlardan ko‘p foydalanganimiz uchun ularni o‘tindan boshqa narsaga yaramaydi, deydiganlar xato qiladi. Bular 15 yillik tajribam asosida o‘rganganlarim, xolos. Hozirgacha o‘rganaman. Biroq haligacha ildiz ilmining tubiga yetolmayman. Ildiz bilan ishlashimizning boshqa bir muhim jihati shuki, O‘zbekistonda bu faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar oz. Shuning uchun bu orqali biznes qilish, eksport darajasiga ko‘tarilish imkoni katta. Ildiz bilan ishlash ko‘pchilik uchun yangilik ham. Aksariyat meni yog‘och o‘ymakor usta deb biladi. To‘g‘ri, o‘ymakorlikni juda hurmat qilaman. Biroq men o‘ymakor usta emasman, ildizdan noyob buyumlar yasovchi hunarmand, amaliy san’at ustasiman.



Behzod Madraimovning Yangiyo‘l shahriga ketaverishda yo‘l bo‘yida joylashgan muzeysifat do‘konida tarvaqaylagan ildizdan yasalgan o‘rindiq e’tiboringizni tortadi. Uning aynan shu holda o‘sganiga ishongingiz kelmaydi. Tabiatning tuhfasi, mo‘jizasi u. Ildizning tabiiyligini saqlagan holda boshqa ko‘rinishga keltirish esa ulkan mahorat, chinakam san’atdir.

Xorij bozorini zabt etayotgan hunarmand

Yasagan mahsulotini sotish oson emasligini aytgan hunarmand pandemiya davridagi o‘ziga xos foyda haqida gapirib berdi. Aytishicha, aynan pandemiya payti ichki turizm rivojlandi. Mehmonxonalarga chet eldan keladigan dekoratsiyalar o‘rnini o‘zimizning mahsulotlar to‘ldirdi.

— To‘g‘risi, mehmonxona rahbarlari ishimizni mensimasdi. Ularga chet elning mahsuloti kerak edi. Pandemiya ularning ba’zilarini mahalliy mahsulotlarni sotib olishga majbur qildi. Qarasa, chet elnikidan qolar joyi yo‘q, — deydi hunarmand. — Bitta mehmonxonaning to‘liq dekoratsiyasini yasab berdik. Boshqa mehmonxonalar bilan ham shartnomamiz bor. Asta-sekin ichki bozorda ham yog‘och likopchalarimiz, piyolalarimizga qiziqish ortyapti. Yog‘och laganlarimizning ham bozori chaqqon bo‘lib qoldi. Chunki yog‘ochdan yasalgan idishlar taomning issiqligini uzoqroq saqlaydi. Turkiyalik hamkorlar uchun qilich, qalqon yasadik. Ular hozir muzeylardan joy olgan. Bunday buyumlarni ko‘rib, “Nega faqat xorijga sotasiz? Men ham o‘zim uchun sotib olmoqchiman”, deganlar bo‘ldi. Yurtdoshlarimizga mahsulotni 50 foiz arzon sotamiz. Shu bois, bizdan sotib olib, chet elga pullaydiganlar ham topiladi. Masalan, bitta shaxmatni ming dollarga xarid qilib, Turkiyada 9 ming dollarga sotyapti. Ha, bunday buyumlarning narxi oshib boraveradi. Og‘irligi 650 kilolik yong‘oq daraxtidan yasalgan kreslomizga 8 ming dollar narx qo‘yganmiz. Eng arzon ishimiz 100 ming so‘mdan boshlanadi. Eng yuqori narximiz 60-70 million so‘mgacha boradi. To‘g‘ri, qo‘l mehnatimiz mashaqqatini, bahosini bilmaganlar mahsulotlarimiz qimmat ekanini aytadi. Biroq bilgan odamlar rahmat aytib olib ketadi. Saudiya Arabistoniga sotgan 10 ming dollarlik stolimiz mijozimizning uy-muzeyida turibdi. U ham tabiatning yagona, betakror naqshli ildizidan yasalgani bilan qadr topdi. 650 xil mahsulotimiz bo‘lsa, ana shunday eksklyuzivlari juda ko‘p.

Kamida uch million so‘m topayotgan o‘quvchilar

Behzod Madraimov maktab o‘quvchilarini 5-sinfligidan shogird sifatida tarbiyalayotir. Bolasini yetaklab kelgan ota-ona bilan suhbatlashayotib, hunarmandning ko‘zi o‘sha bolaning narsalarni qanday tomosha qilayotganida bo‘ladi. Moskvadagi ustozi kabi bolani ko‘zidan biladi: u bu hunarga qiziqadimi-yo‘qmi. Zero, ba’zi bolalar bir zumda hamma narsani ko‘rib bo‘ladi, ba’zilari esa har bir buyum qarshisida uzoq turib qoladi. Ildizni tozalash jarayonida “Bu ish qiyin ekan”, deb ketib qoladigan bolalarni hunarmand birinchi ko‘rishdayoq biladi, ota-onasiga to‘g‘risini aytadi. Chunki ba’zan ildizni tish cho‘tkasi bilan tozalaydigan holatlar ham bo‘ladi. Boshqa uskuna sig‘maydi.

Shogirdlari orasida koreys, qozoq, rus, ukrain millatiga mansub bolalar bor. Har biri o‘z urf-odati, qadriyatlariga egaligi bois, shogirdlar bir-biridan tili, madaniyati, qadriyatini ham o‘rganadi. Shuningdek, fikrlar, g‘oyalar xilma-xil bo‘ladi. Bir-biridan kuch oladi, ruhlanadi. Tasavvur qiling, 10-sinf bolasi oilasiga kamida 3 million so‘m olib borsa, qanday ajoyib! Ham usta bo‘lib shakllanyapti. Ham til, ham tarbiya, ham muomala o‘rganyapti. Turli millat bolalari bir-biriga mehr, hurmat ruhida kamol topmoqda. Eng katta yutuq shu, aslida.

Behzod akadan o‘zib ketgan, tug‘ma iqtidorli shogirdlari ham bor. Ularni ta’lim olish Moskvaga jo‘natadi, soha bo‘yicha o‘qitadi. Hunarmandning bir shogirdi Dubayda 4,5 ming dollar oylik maoshga ishlayotir. Darvoqe, shogirdlar orasida 58 yoshlisi ham bor. Eng kichigi 12 yoshda. 6-, 7-, 8-sinf o‘quvchilari darsdan keyin hunar o‘rganib, pul topmoqda. Loaqal ildizni silliqlash, tozalashga qarashayotgan bolalar vaqtini behuda sarflamaydi. Usta ularni har kuni ruhlantiradi.



— Uyida xontaxtasi yo‘q shogirdim chiroyli xontaxta yasab olib borsa, ota-onasi qanchalik quvonadi, — deydi hunarmand. — Aytaylik, xontaxta 800 ming so‘m turadi. Unga 300 ming so‘mlik mahsulot ketadi. 500 ming so‘m oila budjetida qolyapti-ku. Otam rahmatli “Eng katta yutug‘imiz — usta puli bermaymiz, bolam”, derdi. Bejiz emas ekan. Mahsulotdan ko‘ra, usta xizmati, mehnati qimmatroq bo‘ladi. Ha, erkakning hunari bo‘lsa, qo‘lidan ish kelsa, uyda baraka bo‘ladi. To‘g‘ri, o‘qish ham juda muhim. Shogirdlarimga hamma fanning o‘z o‘rni borligini aytaman. Oddiy stolni yasashda ham davlat standarti degan tushuncha bor. Nega stullar 40, yemak stoli 80 santimetr bo‘ladi? Bular hammasi chuqur o‘ylab tanlangan me’yor. O‘lchamni aniq olish, yog‘ochni to‘g‘ri kesish uchun hisob-kitobni, geometriyani yaxshi bilish kerak. Mana, eng zamonaviy axborot texnologiyalari yo‘nalishi bizning sohada ham juda qo‘l kelyapti. Bitta dizayn qilish uchun kompyuterda 3D formatda ishlaymiz. Hozir zamonaviy uskunalar chiqyapti. Tugmani bossangiz bo‘ldi. Bularni ishlata olishi uchun maktab bolalarini dizayn bo‘yicha o‘quv kurslarida o‘qityapmiz.

— Ayniqsa, Yangiyo‘lda ziyoratgoh yo‘q. Sayyohlarni noyob hunarmandlik mahsulotlari bilan jalb etishimiz mumkin. Buning uchun hunarmandni qo‘llab-quvvatlash kerak. To‘g‘ri, davlatimiz ko‘plab imtiyozlar yaratib beryapti. Soliqlar, kredit olish masalasida hech qachon bo‘lmagan imkoniyatlarga ega bo‘ldik. Shuning uchun ham chet elda ishlash fikridan qaytganman. Ikki shogirdim subsidiyaga uskuna oldi. Ota-onasining uskuna olib berishga imkoni yo‘q edi. Shunday holatlarda hunarmandlarga yordam berilayotgani quvonarli. Biroq menga o‘xshab yer so‘ragan hunarmandlarga yer berilishi kerak, deb o‘ylayman. Chunki ustaxonam uyimda joylashgan. Hamma shogirdimni uyimga sig‘dira olmayman-ku? “Usta-shogird” maktabini yaratish orzum yer bilan bog‘liq axir. Bu borada tegishli joylarga murojaat qildim. Hozircha natija bo‘lmadi. Ammo chekinmayman, baribir maqsadim sari intilaveraman. Chunki mamlakatimizda tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlar samarasiga ishonaman, — deydi suhbatdoshimiz.

O‘ylaymizki, qisqa muddatda mazkur masala ham ijobiy yechim topadi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

Bizga shunday kadrlar kerak. Uyida o‘tirib ham istalgan payt ish qila oladi ular. Buyurtma bersak bas, tayyorlayveradi. Chirchiqlik bir shogirdim ildizni yaxshi tushungani uchun xomashyoni tayyorlab berib, ishimizni ancha yengillatyapti. Hamma shogirdim ishining ustasi bo‘lishini istayman. Insondan yaxshi nom qolishi kerak. “Yo‘ldosh akaning o‘g‘liman” desam, otamni taniydiganlar “Otangga rahmat”, deydi. Ajabmas, 50-100 yildan so‘ng bir shogirdimizning farzandi butun dunyoda tanilib ketsa-yu, ustozing kim desa, bizni tilga olsa.

Behzod Madraimov ko‘rgazmalarga 15 nafargacha shogirdini olib boradi. Bu orqali bolalar Buxoro, Samarqand, Xiva, Gulistonni ko‘ryapti. Albatta, sayohat ularga kuch bag‘ishlaydi.

Yutayotganlarimiz va kutayotganlarimiz

Bugun yangi-yangi g‘oyalar bilan odimlamasangiz, bir joyda to‘xtab qolasiz. Behzod Madraimov ham ayni shu shior bilan yashaydi. Uning minglab sayyohlarni hayratga soladigan rejalari, orzulari bor. Sayyohlik manzillariga daraxt ildizlaridan yasalgan uychalar, ekologik toza mahsulot — ildizdan kompakt uylarni joylashtirish bilan turizmga hissa qo‘shishi mumkinligini aytdi. Ayni taklif viloyat hokimligi, “Hunarmand” uyushmasiga ham ma’lum qilingan. Zero, bu orqali ish o‘rni ochishdan tashqari, turizmni rivojlantirishda yangi yo‘nalish kashf etish mumkin. Buning ortidan hunarmand sayyohlar oqimini yanada oshirishga xizmat qilmoqchi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3606.
41218 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 23:49 Topshirildi — 00:05